

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA`LIM VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

Sadiqova Nasiba Yormat qizi

Mavzu: “Tong shabadasi” manzara

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

Sherov D.R

Urganch-2017

MUNDARIJA

KIRISH.....3

I.BOB. MANZARA JANRIDA KOMPOZITSIYA ISHLASHNING TASVIRIY SAN'ATDA TUTGAN O'RNI.

1.1. Manzara janrida kompozitsiya ishlash qonun-qoidalari va uning tasviriy san'atdagi ahamiyati.....8-17

1.2. Mashhur manzarachi rassomlar ijodida shakl va rang kompozitsiyasi...18-21

1.3. Tasviriy san'at darsida “Tong shabadasi” mavzusida kompozitsiya ishlashning o'ziga xos xususiyatlari.....22-30

II.BOB. MAKTAB TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA TABIAT MANZARASINI CHIZISH MAVZUSIDA KOMPOZITSIYA YARATISHNI O'QITISH TEXNOLOGIYASI

2.1 Tabiat manzarasini chizish mavzusida kompozitsiya ishlash mashg'ulotlarida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash.....31-37

2.2. O`quvchilarga plenerda naturani yaxlit idrok qilish va rang munosabatlari bilan ishlash metodlarini o`rgatish.....38-47

2.3. “Tong shabadasi” mavzusi ustida izlanishlar va ragtasvir kompozitsiyasini ishlash jarayoni.....48-51

Xulosa.....52-53

Foydalanilgan adabiyotlar

Ilovalar

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Ijtimoiy ong shakllaridan biri - san'at-tabi'at va jamiyatda bo'lgan, bo'layotgan va bo'ladigan voqea-hodisalarni badiiy tasvirlarda ifodadanishidir. Tasviriy san'at o'zida moddiy olamning umumiy holatini va rivojlanishini aks ettirib, odamlarga uni bildiririshda muhim vosita bo'ladi va ularni siyosiy, ahloqiy va badiiy jihatdan tarbiyalashning qudratli omili bo'lib xizmat qiladi. San'at voqelikning o'zida ifodalash uslubi va xarakteri, mazmuniga ko'ra tasviriy san'at, me'morchilik, adabiyot, musiqa, sirk, teatr, kino, radio-televideniya kabi turlarga bo'linadi.

Tasviriy san'atda manzara janrida san'at asari yaratishning eng ijobiy va muhim xususiyati shundaki, u fandan farqli o'laroq voqea va hodisalarni tushunchalarda emas, balki sezgi va his bilan idrok qilinadigan shakllarda, tipik-badiiy obrazlarda ifodalaydi.

O'zbekiston tasviriy san'atining tarixi, qadriyatlari, ilm-fan, madaniyat durdonalarini, har tomonlama ilmiy va ijodiy o'rganish va tahlil etish g'oyat muhimdir. "Bugun bizning oldimizga shunday tarixiy imkoniyat paydo bo'ldiki, - degan edi O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimov, - biz bosib o'tgan yo'limizni tanqidiy baholab, ilmiy davlatchiligimiz negizlarini aniqlab, buyuk madaniyatimiz tomirlariga, qadimiy merosimiz tomirlariga qaytib, o'tmishdagi boy an'analarni yangi jamiyat qurilishiga tatbiq etmoqimiz kerak."¹ Shu maqsadda Respublikamiz hukumatining qator hujjatlari Vatanimizning har tomonlama jahon andozalari asosida rivojlantirishga qaratilmoqda. Jumladan, yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda madaniyatimiz, umuminsoniy qadriyatlarimiz, milliy san'atimiz namunalaridan, ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan va butun jahonga mashhur bo'lgan ajoyib san'at namunalaridan keng foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda. San'at, xususan tasviriy san'at istiqloq davrida mafko'raviy - g'oyaviy, ma'naviy olamning tarkibiy qismi sifatida u millat hayotidagi siyosiy va ijtimoiy - iqtisodiy o'zgarishlarga plakat kabi tashviqot - targ'ibot vositalariga

¹ "Xalq ta'limi" jurnali 1992 yil, 10-12 son 1-bet.

o'xshab tezkorlik bilan javob bera oladigan ijodiy targ'ibotlaridan kelib chiqqan holda davom etmoqda.

Ko'p asrlik tarixga ega O'zbekiston tasviriy san'atida manzara janrida yaratilgan san'at asarlari murakkab va serqirra badiiy obrazli tizimdir.

Boshqa tasviriy san'at turlari kabi, manzara janri ham doimiy rivojlanishda. Ushbu janrning psixologik xususiyatlari haqida ilmiy tadqiqotlar olib borilib, tasviriy san'at tarixini kundan-kunga yangi ma'lumotlar bilan boyitmoqda.

Yuqoridagi fikrlarni muxtasarlab quyidagilarni ta'kidlash joiz.

Milliy istiqlol tufayli O'zbekiston xalqi o'zini milliy ma'naviy-madaniy yangilanishida o'ziga xos yo'lni tanladi. Shunday ezgu maqsadlarni amalga oshirish mamlakatimizda demokratik tamoyillarga asoslangan jamiyatni barpo etish, yurt taraqqiyotini ta'minlash, yoshlar qalbiga va ongiga milliy istiqlol mafko'rasini shakllantirishni taqozo etmoqda.

Shunday ekan, har bir jamiyatning ijodkor qatlami o'zining o'rinbosarlari bo'lgan yosh avlodning kelajagi uchun qayg'urishi va g'amxo'rlik qilishi zarurdir.

Ajdodlarimiz yaratgan buyuk san'at asarlari, madaniy-ma'rifiy boyliklar xalqimiz, ayniqsa yosh avlod uchun katta tarbiya maktabi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan ushbu bitiruv malakaviy ishida tasviriy san'at asarlarida "Tong shabadasi" mavzusida kompozitsiya ishlashni keng miqyosda o'rganib, ta'lim jarayonlarining yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan o'quv mashg'ulotlarida o'quvchi – o'quvchilarni ushbu janrda asar yaratish orqali tabiatni, ekologiyani, shuningdek, atrof-olamimizni o'rab turgan jamiki tabiat unsurlarini asarab-avaylash bilan birga ulardan bahra olish san'atiga ega bo'lishni taklif qilinadi.

Tanlangan mavzuning dolzarbiligi shundaki, manzara janrida yaratilgan asarlar Mustaqillik yillariga kelib, san'at darajasida yuqori mavqega erishib borayotganligiga qaramasdan bugunga qadar ushbu san'at turi va unda ijod qiluvchi usta rassomlar ijodi ilmiy jihatdan o'quv mashg'ulotlarida ilg'or texnologik yondashuvlar asosida o'rganilmagan. Ushbu san'at turi borasida dars jarayonida

yangicha pedagogik yondashuvlar asosida nazariy ma'lumot beruvchi manbalar yo'qligi rassomchilikning ilmiy-ijodiy, nazariy va amaliy ahamiyati sust darajadaliigidan dalolat beradi. Shu bilan bir qatorda ushbu sohani keng qamrovda namoyon etuvchi ilmiy manbalarni ommaga joriy etish masalalarini taqozo etadi.

Mavzuning dolzarbligi yana shunda ko'rinadiki, o'zbek xalqining qadimdan shakllangan rassomchilik san'ati o'zining xilma-xil turlari bilan bir-biridan alohida ajralib turadi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishim mavzusini tasviriy san'at darslarida "Tong shabadasi" mavzusida manzara ishlash deb nomladim. Ushbu mavzuni hozirgi zamon o'quvchilariga to'la javob bera oladigan darajada tashkil etiladigan, pedagogik texnologiyalarga yondashgan holda keng yoritib berish, mavzuni o'quvchilarga pedagogik jarayon doirasida ochib berish ayni malakaviy bitiruv ishining dolzarb masalasidir.

Yuqorida zikr etilgan fikrlardan shuni ta'kidlash mumkinki, buyuk davlatning bugungi istiqbolini madaniyat va ma'naviyat haqida guvohlik beruvchi san'at muassasalarisiz tasavvur etish qiyin. Binobarin, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida» kitobida to'g'ri ta'kidlaganlaridek: «Biron bir jamiyat ma'naviy va ahloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi».² Demak, san'at muassasalari – ma'naviyat va madaniyat manbai ekan, ulardan xalqimizning ma'naviyatini, madaniyati va san'atini ko'tarishda ta'lim jarayonlaridan samarali foydalanish bugunning dolzarb vazifasidir.

Mavzuning o'rganilganligi. Ko'p yillik pedagogik faoliyati mobaynida qalamtasvir va kompozitsiyadan mukammal o'quv tizimi shakllandi. Kompozitsiya hayot xodisalarini obrazli aks ettiruvchi vosita bo'lib o'quvchilardan ma'lum farmatda, oddiydan murakkab eskizlar bajarishga o'tish printsiplarini qo'ydi. Keyinchalik kompozitsiyani nazariyasi, amaliyoti va ularni o'qitish metodikasini asosiy printsiplarini ishlab chiqishda V.Favorskiy, A.Deyneka, K.Yuon, E.Kibrik,

² I.Karimov «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavsizlikka taxdid, barqarorlik sharlari va taraqqiyot kafolatlari». T. «O'zbekiston», 1997.

A.Alpatov, G.Nisskiy, F.Reshetnikov, D.Shmarinov kabi ulug' rus rassomlari o'z hissalarini qo'shdilar.

Bularning ichida K.Yuon, A.Deyneka, E.Kibrik, M.Alpatovlarning qoldirilgan ijodiy va ilmiy nazariyasi tadqiqotlarini alohida ta'kidlab o'tish o'rinli.

Kompozitsiya nazariy asoslarni rivojlantirishda salmoqli hissa qo'shgan rassomlardan yana biri Konstantin Yuondir.

Mavzuning maqsad va vazifalari. Mavzuning maqsad va vazifalari yuqorida keltirilgan rassomchilikning ijodiy jarayonidagi davriy bosqichlarni o'rganib, bugungi kunga qadar rivojlanish jarayonini tadqiq etishini oldimizga maqsad qilib qo'ydik.

Tasviriy san'at o'zining funktsional vazifasidan kelib chiqqan holda, birinchi bo'lib jamiyatdagi o'zgarishlarga nisbatan o'z munosabatini bildiradi. Tasviriy san'at va madaniyatning buyuk asarlari va manzara janrida ishlangan kompozitsiyaga bag'ishlangan qator tasviriy san'at asarlari muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, milliy g'oya va mafko'raning shakllanish jarayonida tabiatga mehr uyg'otuvchi san'at sohasiga aylandi.

Mavzuni yoritishda asos qilib olingan "Tong shabadasi" manzara kompozitsiyasini ishlash keng qamrovda batafsil o'rganilishi va ilmiy adabiyotlarga yanada ko'proq kirgizilishi kabi masalalar ilm-fan oldidagi qator vazifalardan biridir.

Bitiruv malakaviy ishining vazifasi:

"Tong shabadasi" mavzusida ishlangan kompozitsiya misolida manzara janrida kompozitsiya ishlashni pedagogik zaruriyat sifatida o'rganish;

"Tong shabadasi" mavzusida kompozitsiya ishlashda buyuk rassomlar ijodiy merosidan foydalanishga erishish;

"Tong shabadasi" mavzusida ishlangan kompozitsiya orqali o'zbek millatiga xos milliy urf-odat va an'analarning tutgan o'rnini va ahamiyatini ko'rsatish;

"Tong shabadasi" mavzusida ishlangan kompozitsiyani dars jarayonlarida o'rgatishda yangi pedagogik texnologiyaning samarali usullari va vositalaridan foydalanish.

Mavzuning amaliy, ijodiy ahamiyati. Mavzuning ob'ekti ya'ni “Tong shabadasi” mavzusi uchun ishlangan manzara kompozitsiyasini pedagogik texnologiyalar orqali yoritish.

Mavzuning predmeti. Mavzuning predmeti “Tong shabadasi” mavzusida ishlangan manzara kompozitsion asarining mazmuni, tasvirlash usuli va vositalari;

“Tong shabadasi” mavzusida ishlangan manzara kompozitsiyasini yaratishda rassom pedagogning ijodiy qobiliyatlarini yuzaga chiqarishning pedagogik-psixologik asoslarni aniqlash.

Mavzuning ob'ekti. Ushbu bitiruv malakaviy ishining ijodiy ob'ekti tabiat manzarasida ishlangan kompozitsiyadir.

Mavzuning malakaviy yangiligi. “Tong shabadasi” mavzusida ishlangan manzara kompozitsiyasi orqali uning pedagogik muammolari birinchi marta yaxlit holda o'rganildi. “Tong shabadasi” mavzusida ishlangan manzara kompozitsiyasida milliy an'analar va o'zbek millatiga xos ijtimoiy hayotning o'rni va ahamiyati yoritib berilgan. “Tong shabadasi” mavzusida ishlangan manzara kompozitsiyasining mazmuni, pedagogik vositalari va uslublari ishlab chiqildi.

I.BOB. MANZARA JANRIDA KOMPOZITSIYA ISHLASHNING TASVIRIY SAN'ATDA TUTGAN O'RNI

1.1. Manzara janrida kompozitsiya ishlash qonun-qoidalari va uning tasviriy san'atdagi ahamiyati.

Ma'lumki, san'atning turlari nihoyatda ko'p bo'lib, ular adabiyot, musiqa, kino, teatr, me'morchilik, amaliy-bezak, sirk, televidenie, tasviriy san'at hisoblanadilar. "Tasviriy" atamasi "tasvirilash" so'zidan olingan bo'lib, unda turli material, xususan, buyoq, tosh, gips, yog'och shuningdek, boshqa badiiy va tashlandiq materiallar yordamida har xil obrazlarni va narsalarning rasmi, haykalini ifodalash tushuniladi. Tasviriy san'at ilm-fan kabi dunyoni, hayotni, tabiatni, halqlar tarixini bilishga xizmat qiladi. Tasviriy san'atning paydo bo'lishi ibtidoiy jamoa davriga borib taqaladi. Bu vaqtda kishilar voqealarni, odam va xayvonlarni toshlarga tasvirini chizib, ularni kesib turli ko'rinish va mazmunda haykallar yasaganlar. Qadimdan kishilar san'at, tabiat xodisalari va kishilarning o'zaro munosabatlari, faoliyatlariga, xulqiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi deb hisoblaganlar. Shu qatori tasviriy san'at asarlari kishilarga katta kuch bilan ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ham ega. Kishilar tasviriy san'at asarlarini tomosha qilish orqali ularda ifodalangan go'zallikni ko'rish orqali o'z hayotiga ana shunday go'zallikni kiritishga harakat qiladilar, asarlardagi qahramonona harakatlarni ko'rib ularga o'xshashga intiladilar. San'at asarlaridagi tabiat ne'matlaridan ruhiy ozuqa olish, hayotdan zavq olish orqali ulardan bahramand bo'ladilar, dam oladilar.

Ayniqsa, manzara - janrdagi asarlarda borliq, tabiatdagi ko'rinishlar haqqoniy aks ettiriladi. Manzarada faqatgina narsa va voqealar emas, balki musavvirning ichki kechinmalari ham ifodalanadi. Ayrim musavvirlar vodiylarni, tog'u-toshlarni tasvirlashga ishqiboz bo'lsalar, boshqalari dengiz manzarasini tasvirlashda mohirdirlar. Manzara janrida musavvirlardan O'.Tansiqboevning "O'zbekistonda mart", "Jonajon o'lka", "Mening qo'shig'im", N.Kashinaning "Tog'da bahor",

Z.Inog'omovning "Arpa o'rimi", "Choyga", R.Temurovning "Bibixonimda bahor", "Ulug'bek madrasasi" asarlari mualliflarga shuhrat keltirdi.

Rassomlar o'z asarlarida hayotni qanday ko'rsalar o'shanday emas, balki undagi harakterli ko'rinishlarni tanlab oladilar, kerakmas ikkinchi darajali ko'rinishlarni tushurib qoldiradilar, muhimlarini bo'rttirib ko'rsatadilar. Tanishish va bo'rttirish orqali rassomlar narsa va xodisalarni kishilarning tafakkuri va hissiyotlariga samarali ta'sir ko'rsatishga erishadilar. Rassom borliqni shunchaki biladigan shaxs emas, balki u boy tasavvur va tafakkur qilish qobiliyatiga ega bo'lgan kishidir. U o'z ijodida borliqni shunchaki aks ettiribgina qolmay, balki unga asoslangan holda nimalarnidir o'ylab topadi, tasavvur etadi va to'qiydi. Eng muhimi san'at asarlari o'z mazmunida borliqni aks ettiribgina qolmasdan, u rassomning g'oyalarini ifodalaydi, uni boyitadi, Shu bilan birga bunday asarlar tomoshabinga emotsional ta'sir ko'rsatish kuchiga ham egadir.

Manzara janri. Tasviriy san'atda tabiat, shahar, industrial, interer ko'rinishlarini tasvirlanishi manzara janrga taaluqlidir. Manzara janridagi asarlarning ayrimlari bevosita tabiat manzarasini haqiqiy ko'rinishini tasvirlasa, boshqalari ijodiy tarzda xayolan ifodalangan bo'ladi. Ba'zan bu ikki hol bir asarda bo'lishligi ham mumkin. Manzara janrini paydo bo'lishi juda uzoqlarga borib taqaladi. Manzara tasvirlarining keng tarqalishini Qadimgi Sharq va Krit orollari misolida ko'rish mumkin.

Masalan, eramizdan avvalgi asr Beni-Xasandagi qabr tasvirida yovvoyi mushik ovi tasvirlangan. Bu janr esa mustaqil ravishda Xitoyda 6 asrda paydo bo'lgan. Evropa san'atida esa O'yg'onish davrida ilmiy asosda ya'ni chiziqli va xavo (rang) perespektivasi asosida shakllangan.

Manzara janrini ikki xili mavjud. Birinchisi mustaqil turi bo'lib, unda faqat manzara aks ettiriladi. Ikkinchi turida manzara biron tasvir fonida tasvirlanadi. Masalan, portretni orqa tomonida tabiat yoki shahar manzarasi tasvirlanishi mumkin.

Manzara janrida samarali ijod qilgan rassomlardan I.Levitan, I.Shishkin, O'.Tansiqboev, I.K.Ayvazovskiy, N.Karaxan kabilarni ko'rsatish mumkin.

Manzara janrining ko'rinishlaridan biri bu interer hisoblanadi. U binolarning ichki qism ko'rinishlarini ifodalaydi. Bu janr qadimgi Misr, Xitoy rassomchiligida uchraydi. Ular o'z ishlarida aql bovar qilmaydigan darajada aniqlik bilan perespektiva qonunlari asosida intererni tasvirlay olganlar.

Bu janrda ijod qilib Jotto, A.Verrokko, Leonardo do Vinchi, Rembrantlar shuxrat qozonganlar.

Manzara janrining ikkinchi bir ko'rinishi bu marina janridir. Unda asosan dengiz ko'rinishlari va undagi xodisalar tasvirlanadi. Marina janrini shakllanishida I.Ayvazovskiyning xizmatlari katta bo'lgan. U o'zining umrini faqat dengiz ko'rinishlarini tasvirlashga bag'ishladi. Uning "To'qqizinchi val", "Chesmen jangi", "Qora dengiz", "To'lqinlar orasida" kabi asarlari jaxon tasviriy san'atida munosib o'rinni egalladi.

Manzara janri ko'proq rangtasvirda, qisman grafika va haykaltaroshlikda qo'llaniladi. Xaykaltaroshlikda manzara asosan uning relief turida ishlatiladi. Xaykaltaroshlikda manzara ko'rinishlari asosiy emas, to'ldiruvchi, qo'shimcha ahamiyat kasb etadi.

Kompozitsiya so'zi lotinchadan kompositio - yani predmetlarini bo'laklarini solishtirib, ma'lum tartibda yaxlit joylashtirish, g'oyaga muvofiq ijod qilish, bayon qilish, kompozitsiya tuzish demakdir.

Kompozitsiya, san'atning hamma turlarini negizida mavjud: adabiyot, teatr-kino, musiqa, tasviriy va amaliy san'at, arxitektura va hokazo.

Kompozitsiya o'quv predmet sifatida, qalamtasvir, rangtasvirdan keyin paydo bo'ldi va hozirda kompozitsiya kursi oliy ta'lim kasb-hunarleri o'quv rejalariga kiritilgan.

Pedagogika universitetlarining badiiy-grafika fakultetlarida kompozitsiya fani o'quvchilarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bilan birga kompozitsiya qonun, qoidalarini, xaqiqatni to'g'ri shaklda ifodalash usullarini o'rgatadi.

Tasviriy san'atda kompozitsiya qalamtasvir, soya-yorug', rang, xavo va chiziq perspektivasi kabi tasviriy vositalar bilan yaratiladi.

Kompozitsiya kursi o'quvchilarni mustaqil ijodiy va pedagogik faoliyatida obrazli fikr yurgazishida katta ahamiyatga egadir.

Qalamtasvir va rang tasvirda rassom bevosita kompozitsiya asoslariga murojaat qiladi, uning qonun-qoidalarini bilmay turib kompozitsiya, qalam tasvir, rang tasvir mohiyatini tushunib etmaydi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishida "Tong shabadasi" mavzusida manzara kompozitsiyasi ishlashning mohiyati, uning tasviriy san'atda rivojlanish tarixi, badiiy ijodning asosiy qonun qoidalari, vositalari va ularni o'rta maxsus ta'lim muassasalarida tasviriy san'at darslarida o'qitish metodlari haqida tavsiyalar tushunchalar beradi. Shuning uchun rassom - o'qituvchilarni kasbiy tayyorlashda kompozitsiya fanining eng murakkab va muhim fan sifatida o'rganish tavsiya etiladi.

Kompozitsiya qonun - qoidalarini chuqur bilish, qobiliyatli ijodkor ongiga sayqal beradi. Etuk rassomlarning ijodiy tajribasiga va kompozitsiyani o'qitish uslubiyatiga asoslanib Badiiy Akademiya tomonidan 1960-64 yillari nashr etilgan 8 jildli «Школа изобразительного искусства» nomli metodik qo'llanma tasviriy san'at manbaini boyitdi.

San'at asarlarini taxlil qilganimizda, kompozitsiya qoida va usullari o'z mohiyatini asta – sekin yo'qotib, yangi kompozitsiya qoidalari paydo bo'la boshladi. Badiiy asar yaratishda rassomlar tabiiy va ongli ravishda kompozitsiya qonunlariga rioya qilishadi. Har bir ijtimoiy – jamiyat san'at oldida yangi zamonaviy vazifalarni ko'ndalang qo'yadi.

Hozirgi vaqtda biz kompozitsiyani nazariy asoslarini ikki guruhga ajratib o'rganamiz.

1. Kompozitsiya qonunlari.
2. Kompozitsiya qoida va usullari.

Kompozitsiya usul (yo'llari). Kompozitsiyani asosiy usullaridan biri ritmni ifodalash, kompozitsiya mavzusi markazini aniqlash, simmetrik yoki assimetrik holati, massani ikkinchi plandagi kenglikdagi asosiy qurilmasini joylashtirish.

Ritm hayotda va san'atda mavjudligi rassom uchun yaxshi belgi, vositadir u bir elementni oraliqda galma –gal qaytarilishidir. Asar g'oyasini kompozitsiya

tuzilishini idrok etishda ritm estetik obrazli tasavvur rolini o'ynaydi va kontrast rang, ton qonunlariga suyanadi.

Tasviriy san'atda kompozitsiyani rivojlantirish tarixi bilan tanishib, imkoniyat darajasida mavjud bitiruv malakaviy ishiga tegishli ma'lumotlarni tartibli ravishda o'rganib, kompozitsiya nazariyasi xaqida bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'ldik.

Manzara - tasviriy san'atning qadimiy janrlaridan bo'lib, tarixiy maishiy asarlarda ham vosita - fon sifatida muhim rol o'ynaydi. Qadimiy xitoy san'atida rassomlar tabiatni aks ettiruvchi asarlar yaratganlar.

Evropada manzara janri tarixi XVI - XVII asrlarda taraqqiy etdi. Gollandiya manzarachi rassomlari tabiatni o'xshatib haqqoniy tasvirlashda katta muvaffaqiyatlarga erishdilar.

Rossiyada manzara janrining rivojlanishi XVIII asrga to'g'ri keladi. Moskva, Peterburg arxitektura yodgorliklari F.E. Alekseev tomonidan mahorat bilan tasvirlangan. Manzara san'ati tashqi dunyoning go'zalligini aks ettirish bilan insonga ijobiy ta'sir etuvchi kuchga ega. Shuning uchun rassom tabiat olamini eng nozik, tipik holatlarini, rang garmoniyalarini anglab, tabiatga nisbatan bo'lgan estetik munosabatini bildiradi.

Manzara asarida inson shaxsi, aql zakovatini, ichki tuyg'ularini tasvir orqali qo'shiq qilib kuylaydi va tabiat obrazini yaratadi. Misol tariqasida I. Levitanning «Oltin kuz», «Abadiy sokinlik uzra», I. Shishkinning, «O'rmon yiroqliklari», V. Meshkovning «Ural haqida o'ylar» asarlarini keltirish mumkin.

Tasviriy san'atdagi manzara janriga oid asarlar insonda tabiatga muxabbat va go'zallik fazilatlarini shakllantiradi. Rassomlar tarixiy va maishiy mavzudagi asarlarda bevosita manzaraga ham murojat qiladilar, etud, eskizlar yozadilar. Bu holda manzara kartinada qo'shimcha fon vazifasini o'taydi.

V. Vasnetsovning «Alyonushka» asari bunga misol bo'la oladi. Tabiiy go'zalligini, zamonasiga xos yangilik o'zgarishlarni K. Yuon, Yu. Pimeaev, G. Nisskiy kabi rassomlar ham o'z asarlarida tasvirlab namoyish etdilar.

Urushdan keyingi yillarda muntazam tashkil etilgan Respublika, sobiq ittifoq badiiy ko'rgazmalar, O'zbekiston tasviriy san'atiga ijobiy ta'sirini ko'rsatdi.

Tabiatni yangicha his etish, yangicha talqin qilish hissiyoti paydo bo`la boshladi. Rassom sanoat, shahar, lirik manzaralarni aks ettirmasin tabiatga ishtiyoqi ortib bordi.

XX asrni 50 nchi yillari o`zbek manzara janrida Urol Tansiqboev karvonboshi bo`lib qoldi. Qishloq xo`jalik tematikasiga oid asarlar yarata boshladi.

1950 yili «O`zbekistonda bahor», «Paxtani sug`orish» asarini yaratdi. Erta bilan esayotgan mayin shabada va shildirab oqayotgan suv, salqin tabiatni uyg`onishi tomoshabinda quvonchli hissiyotni uyg`otuvchi ta`sirchan vositadir. Hayotni ob`ektiv qonunlari va inqilobiy rivojlanishini epik holatda yuzaga kelishi «Ona o`lka» asarida (1951 y) o`z aksini topdi. Kompozitsiya echimini panorama usulida echish, rassom ijodining xarakterli nuqtalaridan bo`lib qoldi. Ayniqsa cho`lni ochishga bag`ishlangan «Taxna-Tashu» va «Issiq ko`l» nomli asarlarida namoyon bo`ladi. Manzara kompozitsiyasini panorama usulida tasvirlash rassomga xos xususiyatlardan biridir.

«Qayraqum GES tongi» (1957 y) eng yaxshi industrial manzara asarlaridan biri deb tan olingan. (B.V. Veymarn, U. Tansiqboev Moskva Izd. Iskusstva 1958 g). Asar 1957 yili Moskvada sobiq ittifoq ko`rgazmasida va Bryuseldagi ko`rgazmada namoyish etilib kumush medal bilan taqdirlangan. Hozir u Moskvadagi Sharq xalqlari Davlat san`at muzeyida saqlanmoqda. Oldimizda katta keng gidroelektrostantsiyani qurilishi panoramasi, orqasida biryuza rangli qayroqum dengizi yoyilgan kompozitsiya markazi ham gidrostantsiya qurilishi. Qurilishi hali nihoyasiga etmagan. Tepalikdagi buldozer, to`g`on ustidagi kranlar, oldingi plandagi qumli do`ngliklar, to`g`on orqasidagi cho`l manzarasi, cho`lda hosil bo`layotgan mo`jizani eslatadi. Eng asosiysi qayroqumda haqiqatni poetik talqin etilishi bilan manzara asarida mahoratini ko`rsata bilgan. Yorqin dekorativ iliq, sovuq tusalardagi kontrast pushti, tilla, ko`kbiryuza ranglarda go`zal tabiatni bepoyon kengligidagi qaynoq hayot o`z aksini topgan. Dengiz sathidagi quyosh nurlarida yarqirab turgan o`ynoqi bliklar rassom tomonidan juda katta mahorat bilan tasvirlab berilgan.

U. Tansiqboev Respublika industriyasini rivojlanishiga bag'ishlangan ko'plab asarlar yaratdi. «Almaliqda» 1958 y., «Tsement zavodi» 1960 y., «Charvak GES qurilishida» 1969-1970 y. asarlari shular jumlasidandir.

Ural Tansiqboev diapazoni keng rassom. U tabiatni aks ettiribgina qolmay, balki undagi inson qo'li, aql-zakovati orqali bo'layotgan o'zgarishlar tasvirlanadi. Sobiq SSSR badiiy akademiyasining muxbir a'zosi. O'zbek tabiat manzara san'atining kuychisi Ural Tansiqboevni ko'p asarlari Moskvadagi Tretyakov gallereyasi, O'zbekiston Davlat san'at muzeylarida saqlanmoqda.

40-50 yillardagi o'zbek manzara san'atining yana bir vakili bu Nikolay Qoraxondir.

Dastlabki ijodida qishloq hayoti, keng dalalar, yo'llar, mehnatkash xalq hayoti asosiy mavzu bo'lsa, keyinchalik tabiatga chiroy ochayotgan yirik inshootlar, industriya manzaralaridan tashkil topdi. Uni xalqni farovon hayoti, mehnat jarayoni ko'proq qiziqtirdi «Zavod trubalari» 1929 y, «Ishga ketayaptilar» (1934 y.) shular jumlasidandir.

50 yillarga kelib rassom ijodida Tog` mavzusi asosiy o`rin egalladi. Ko`proq bahor, kuz, tabiatni erta-kechqurun paytlarini dekorativ ko`k, yashil, sariq, qizil ranglarda jozibali qilib tasvirladi. Tog`ning jo`shqin ohanglarini «Nanayga yo`l» 1954 y. «Amu Daryada» 1957 y, «Elektrostantsiya» 1957 y. asarlarida ko`rishimiz mumkin.

1958 yillarga kelib rassomning yangi ijodiy qirralari ochila boshladi. Buni «Gullayotgan Vodiy» asari misolida ko`rish mumkin. Bahor, tabiat bayram libosida. Binafsha rangli tog` bag`rida gullab turgan oq pushti, sariq oq ranglardagi daraxtlar, bepoyon dalalarga gilam yozgan yashil maysalar, go`zal tabiatga chiroy ochib, insonga qanchadan qancha shodlik va quvonch baxsh etadi. Asarda rang koloriti echimi asosiy rol o`ynaydi. Esayotgan mayin shabada, tizma tog`lar, sariq, tilla rangdagi bug`doyzorlar bunga misol bo`la oladi. Sariq mayin tilla kaloritda yozilgan «Oltin kuz» (1962 y), «Tog`da kuz» (1959 y), «Oltin simfoniya» (1962 y), «Toshkentda kuz» (1967y) asarlarida Nikolay Qoraxon odil fikrli etuk manzarachi rassom sifatida namoyon bo`ladi.

Rangli beqasamga o`ralgan tabiat qo`yniga berkilgan tog` yonbag`ridagi qishloq, quyosh nurida jilvanayotgan daraxtlar orasidagi burma yo`llardagi odamlar qiyofasi, ertak manzarasini eslatadi. O`sha davrdagi keksa rassomlar O.Tatevosyan, M.Novikov, A.Volkovlar manzara janrida ijod qilib, O`zbekiston tabiati va hayotdagi sodir bo`layotgan yangiliklarni aks ettirdilar. Z.Kovalevskaya, Z.Inog`amov, N.Qo`ziboev, K.Bogaduxov, G.Ulko, M.Esin, N.Shurigin kabi rassomlar O`zbekiston tabiatini aks ettiruvchi lirik manzara asarlarini yaratdilar.

P.Benkov metodikasini yaxshi egallagan shogirdi A.Roziqovni «O`zbek hovlisi» (1947 y), «SherDor hovlisida» (1950 y), «Samarqandda bahor» (1958 y) kabi asarlari Benkovni eslatadi.

Rashid Timurov go`zal Samarqandni kuylagan etakchi rassomlar qatoriga kiradi. U shu shaharda yashab, ko`p asrli qadimiy yodgorliklarni, gullagan bog`larni, hayotni sevib tabiat go`zalligidan ilhomlanib ijod qildi. «Samarqand bog`lari» (1946 y. GMI), «Bibi-xonim maydoni, bahor» asarlarida sokinlik, xalqni bayram tarannumi ifoda etilgan.

Samarqanddagi «Shohi-Zinda», «Xazrat Xizar», «Ulug`bek madrasasi», «Afrosiyob» yodgorliklarini sevib tasvirlagan Rashid Timurov manzarachi rassom sifatida tabiatni yaxshi his etardi. U «Samarqand» (1958 y GMI) asarida ko`rish nuqtasini juda to`g`ri topgan, panorama ko`rinishida tasvirlangan yodgorliklar chuqur falsafiy fikrlashga chorlaydi. Har bir rassom, har bir avlod o`z davrida manzara janrida ham o`zini sinab ko`radi, lekin hammalari ham manzarani yaxshi his eta olmaydi. Manzarachi rassom bo`la olmaydi. Tabiatni vujudi bilan his etib sevgan malakali rassomgina o`z his-tuyg`ularini manzara tasvirida ifodalab beradi. Ko`plab keksa avlod rassomlari bizlarga go`zal manzara asarlarni yaratib meros qoldirganlar. Ular yaratgan san`at asar mazmunini kompozitsiya tuzilishini, ularni ish tajribalarini yoshlarga o`rgatib, ko`rgazmali vosita sifatida foydalanish o`rinlidir.

70-80 yillarda G`Abdurahmonov, F.Toxirov, R.Choriev, K.Bogoduxov, M.Esin, Pudovkin kabi rassomlar manzara janrida samarali ijod qildilar. Hozirgi vaqtda ko`plab izlanuvchi iqtidorli rassomlar, A.Nuritdinov, O.qozoqov, 3.

Islomshikov, A.Mo`minov, A.Mirsoatov kabilar mustaqil O`zbekiston go`zal tabiatini madh etuvchi maftunkor manzaralarni yaratib kelmoqdalar.

Manzaraning bir necha turlari mavjud: Shahar (Arxitektura), qishloq (tog`) manzara, sanoat (zavod, fabrika, inshoot qurilish), tarixiy, romantik, lirik, panorama (ko`rinishida) manzaralari shular jumlasidandir. Bularni har biri negizida ifodalovchi mazmun, g`oya yotadi.

Shahar manzarasida shahar hayoti bilan bog`liq, arxitektura, transport vositalari, odamlar, oromgoh bog`lar hamda er osti o`tish joylari kompozitsiya tasviri uchun misol bo`la oladi.

Qishloq manzarasi, bepayon kenglik, tog manzarasi, yaylovlar, qoya tosh, o`simliklar, vodiydagi jilvakor suvlar tasviri kompozitsiya negizini tashkil etadi. Sanoat manzarasi katta zavod hovlisi, suv ombori, ko`prik, metro qurilishi, texnika qurilish vositalari bilan bog`langan.

Lirik manzarada tabiatni «Erta tong», «Bahor» kabi mavzudagi tabiatni nozik, sokin go`zalligani, uning uyg`onish holatini aks ettiruvchi, insonga olam - olam quvonch baxsh etuvchi asarni ko`z oldimizga keltiramiz. Manzaraning kompozitsiya vositalari (belgilari): joyni tanlash, ko`rish nuqtasi, ko`rish chizigi, fazoviy masofa, format, perbspektiva, ritm, kolorit, yorug`, refleks, kompozitsiya markazi shular jumlasidandir.

Bu janrda kompozitsiya yaratish uchun, qalamtasvir rangtasvir sohalarida mukammal bilimga ega bo`lish kerak. Naturadan dastlabki chizilgan chizgi rangli etudlar manzara kompozitsiyasini tuzishda asosiy mavzu bo`lishi mumkin. Qishloq manzarasini kompozitsiyasini tasvirlamoqchi bo`lsak avval tabiatda quyoshli, bulutli kunlar, peshin, oqshom holatini harakterli xususiyatlarni sinchiklab kuzatish lozim.

Formatni aniqlab, ufq chizig`i, ko`rish nuqtasini belgilab olish kerak. So`ngra havo va erni tekislikda nisbatlarni belgilab, oldingi, keyingi orqa planni va predmetlar masshtabini topish darkor. Kompozitsiyani bir necha variantlarini sangina, ko`mir kabi yumshoq materiallarda bajarish tavsiya etiladi. Bajarilgan xomaki eskiz variantini rangda tasvirlash asar koloritni aniqlashga yordam beradi. Sifatli bajarilgan eskiz asosida manzara kompozitsiyani yakuniy nushasini amalda

bajarish kerak. Uni qog`oz, karton, xolst, akvarel, guash, moybo`yoq orqali amalga oshiriladi.

Bo`lajak rassom uchun hayotni kuzatish, mavzu yuzasidan kundalik qalamchizgi va etudlarni bajarish mashqlarni qilishga kirishsa maqsadga muvofiq ish bo`ladi. Manzara janridagi asarlar inson uchun ma`naviy oziqa beradi, uni ruhlantiradi, hayotga shodlik va quvonch bag`ishlaydi.

1.2. Mashhur manzarachi rassomlar ijodida shakl va rang kompozitsiyasi

Har qanday ijodkor o'tmishdagi rangtasvir san'ati ustalarini merosini va tajribalarini o'rganish bilan birga, tomoshabinga chuqur ta'sir etuvchi tasvir, kompozitsiya qonun uslubiyatini ham o'rganadi.

Amaliyotda kompozitsiyaning zarur unsurlari mavjud. Yaxlitlik qonuni, o'xshatish, kontrast qonun vositalarini mazmuni va g'oyaga bo'ysinib kompozitsiyani asosiy qonunlari deb hisoblanadi.

Bu qonunning belgilari E. Kibrikning kitobida to'la va chuqur analiz qilib berilgan kompozitsiyada birinchi yaxlitlik belgisi qonuniga rioya qilinganligi sababli, san'at asari bo'linmas bir butun bo'lib ko'rinadi.

Kompozitsiya yaxlitligida kompozitsiya elementlari shakl, xajm, «pyatno», oraliq harakter nusxa, imo – ishora bilan ifodalanadi. Misol tariqasida I.Repinning «Krestno'y xod v Kurskoy gubernii» kartinasi bir qarashda yaxlit «pyatno» shaklida ko'rinadi.

Kompozitsiyadagi omma – xaloyiq tasviri diogonal joylashgan bo'lib, kartinani to'rt burchagini bog'lab turadi. Nihoyatda ko'p sonli haloyiq jamoa tasvirlangan bo'lsada, har bir kishi harakteri, nusxasi salbiy, ijobiy obrazlar, sinfiy qarama - qarshiliklar, xullasi rus jamiyati o'z ifodasini topgan.

Xaqiqat qonuni – asosan uchta belgi bilan ifodalanadi. Birinchi belgi bu badiiy asarda sodir bo'layotgan voqeani vaziyatning o'ziga xosligi. A.Savrasovning «Qora qag'alar uchib keldilar», I.Levitaning «Oltin kuz», A.Kuindjining «Qayinzorda», A.Ro'lovning «Havo rang kenglikda» manzaralarida mazmun, nafosat, bilan birga rus tabiatini o'ziga xos obrazi tasvirlangan. Tipizatsiya qonunining ikkinchi belgisi – bu sodir bo'layotgan voqea mavzuini, harakat holatini vaqtini tasvirlaydi.

Yu.Pimenev «Yangi Moskva», «Ertangi ko'chalarda to'y» asarida ko'z oldimizda o'zgarayotgan harakatdagi zamonaviy shahar hayotini ko'rsatgan. To'y marosimini yo'nalishida kelajak hayotga shaxdam qadam tashlayotgan xalqlarning holatidir. Tipizatsiya qonunining uchinchi belgisi bu – yangilikdir.

Realistik san'at haqiqatni to'g'ri ifoda etib qolmay, rassom his tuyg'ularini, estetik go'zallikni, tasavvurni jozibali tarannum etadi.

Badiiy obrazdagi estetik sifatlari, kompozitsiya echimidagi yangiliklar rassom tomonidan kashf etiladi.

Estetik kashfiyotlarni Mikelanjelo, Titsian, Rembrantning o'lmas asarlarida, A.Deyneka, A.Plastov, K.Yuon asarlarida kompozitsiya tuzilishini badiiy vositalaridan mavzuda yangilik tushunchasini ko'ramiz. «Novizna» - yangilik oqimini biz A.Kuindjining «Qayinzorlar», V.Polenovning «Moskvadagi hovli», manzarasida ko'ramiz.

Qadimiy xitoy san'atida rassomlar tabiatni aks ettiruvchi asarlar yaratganlar.

Evropada manzara tarixi XVI – XVII asrlarda taraqqiy etdi.

Gollandiya manzarachi rassomlari tabiatni o'xshatib haqqoniy tasvirlashda katta muvaffaqiyatlarga erishdilar.

Rossiyada manzara janrining rivojlanishi XVIII asrga to'g'ri keladi. Moskva, Peterburg arxitektura yodgorliklari F.E. Alekseev tomonidan mahorat bilan tasvirlangan.

Manzara san'ati tashqi dunyoning go'zalligini aks ettirish bilan insonga ijobiy ta'sir etuvchi kuchga ega. Shuning uchun rassom tabiat olamini eng nozik, tipik holatlarini, rang garmoniyalarini anglab, tabiatga nisbatan bo'lgan estetik munosabatini bildiradi.

Manzara asarida inson shaxsi, aql zakovatini, ichki tuyg'ularini tasvir orqali qo'shiq qilib kuylaydi va tabiat obrazini yaratadi. Misol tariqasida I.Levitanning «Vladimrka», «Abadiy sokunlik uzra», I.Shishkinning, «O'rmon yiroqliklari», V.Meshkovning «Ural haqida o'ylar» asarlarini keltirish mumkin.

Tasviriy san'atdagi manzara janriga oid asarlari insonda tabiatga va go'zallik fazilatlarini shakllantiradi.

Rassomlar tarixiy va maishiy mavzudagi asarlarda bevosita manzaraga ham murojat qiladilar etyud, eskizlar yozadilar. Bu holda manzara kartinada qo'shimcha fon vazifasini o'taydi.

V.Vasnetsovning «Alyonushka» asari bunga misol bo'la oladi. Tabiiy go'zalligini, zamonasiga xos yangilik o'zgarishlarni K.Yuon, G.Nisskiy kabi rassomlar ham o'z asarlarida tasvirlab namoish etdilar.

50-70 yillarda O'zbekistonda manzara janrida ijod etgan rassomlar U.Tansiqboev «Issiq ko'l», «Ona o'lka», «Qayroqqum suv ombori», N.Qoraxon «Nanay yo'li», «Sijjakda bahor», R.Temurov Samarqand arxitektura manzaralari turkimini yaratdilar.

70-80 yillarda G'.Abdurahmonov, F.Toxirov. R.Choriev, K.Bogaduxov, M.Esin, Pudovkin kabi rassomlar manzara janrida samarali ijod qildilar. Hozirgi vaqtda ko'plab izlanuvchi iqtidorli rassomlar, A.Nuritdinov, O.Qozoqov, Z.Islomshikov, A.Mo'minov, A.Mirsoatov kabilar mustaqil O'zbekiston go'zal tabiatini madx etuvchi maftunkor manzaralarni yaratib kelmoqdalar.

Manzaraning bir necha turlari mavjud:

Shahar (Arxitektura), qishloq (tog') manzara, sanoat (zavod, fabrika, inshoot qurilish), tarixiy, romantik, lirik, panorama (ko'rinishida) manzaralari shular jumlasidandir.

Bularni har biri negizida ifodalovchi mazmun, g'oya yotadi. Shahar manzarasida shahar hayoti bilan bog'liq, arxitektura, transport vositalari, odamlar, oromgoh bog'lar hamda er osti o'tish joylari kompozitsiya tasviri uchun misol bo'la oladi.

Qishloq manzarasi, bepayon kenglik, tog`, yaylovlar, qoya tosh, o'simliklar, vodiydagi jilvakor suvlar tasviri kompozitsiya negizini tashkil etadi. Sanoat manzarasi katta zavod hovlisi, suv ombori, ko'prik, metro qurilishi, texnika qurilish vositalari bilan bog'langan.

Lirik manzarada tabiatni «Erta tong», «Bahor» kabi mavzudagi tabiatni nozik, sokin go'zalligini, uning uyg'onish holatini ettiruvchi, insonga olam – olam quvonch baxsh etuvchi asarni ko'z oldimizga keltiramiz. Manzaraning kompozitsiya vositalari (belgilari): joyni tanlash, ko'rish nuqtasi, ko'rish chizig'i, fazoviy masofa, format, perespektiva, ritm, kolorit, yorug', refleks, kompozitsiya markazi shular jumlasidandir.

Bu janrda kompozitsiya yaratish uchun, qalamtasvir rangtasvir soxalarida mukammal bilimga ega bo'lish kerak. Naturadan dastlabki chizilgan chizg'i rangli etyudlar manzara kompozitsiyasini tuzishda asosiy mavzu bo'lishi mumkin. Qishloq manzarasini kompozitsiyasini tasvirlamoqchi bo'lsak avval tabiatda quyoshli, bulutli kunlar, peshin, oqshom holatini harakterli joylarini sinchiklab kuzatish kerak.

Formatni aniqlab, ufq chizig'i, ko'rish nuqtasini belgilab olish kerak. So'ngra havo va yerni tekislikda nisbatlarni belgilab, oldingi, keyingi, orqa planni va predmetlar masshtabini topish darkor. Kompozitsiyani bir necha variantlarini sangina, ko'mirda bajarish tavsiya etiladi.

Mukammal bajarilgan xomaki eskiz variantni rang koloritini aniqlash lozim.

Sifatli bajarilgan eskiz asosida qishloq manzarasi kompozitsiyani yakuniy nusxasini amalda bajarish kerak. Uni bajarish shartlari qog'oz, karton, xolst, akvarel, guash, moybo'yoq orqali amalga oshiriladi.

Bo'lajak rassom uchun hayotni kuzatish, mavzu yuzasidan kundalik qalamchizgi va etyudlarni bajarish mashqlarni qilishga kirishsa maqsadga muvofiq ish bo'ladi.

Manzara janridagi asarlar inson uchun ma'naviy oziqa beradi, uni ruhlantirvdi, hayotga shodlik va quvonch bag'ishlaydi.

Kompozitsiya - bu muallifning ijodiy, badiiy irodasi, maxsuli hisoblanadi.

Shunday ekan tasviriy san'atning barcha janrlarida kompozitsiya yaratish yuksak darajada bilim, ko'nikma, malaka hamda qobiliyat, saloxiyatni talab etadi.

Shu bois bo'lajak tsviriy san'at o'qituvchilari oliy o'quv yurtida ta'lim olayotgan vaqtdanoq qamrovli faoliyatga o'zlarini tayyorlab borishlari lozim.

1.3. Tasviriy san'at darsida “Tong shabadasi” mavzusida manzara kompozitsiyasi ishlashning o'ziga xos xususiyatlari

Tasviriy san'at darslarida “Tong shabadasi” mavzusida manzara kompozitsiyasini ishlashning o'ziga xos psixologik xususiyatlarini o'rganish tasviriy san'at nazariyasidagi yangi yo`nashlash deb qarash mumkin. U tasviriy san'at olamida yaratilgan san'at asarlarini «Badiiy his qilish psixologiyasi» bilan uyg'un holda o'rganiladi. “Tong shabadasi” mavzusiga o`xshagan manzara janrida ishlangan san'at asarlarini juda ko'plab rassomlar ijodida kuzatish mumkin.

Ma'lumki, badiiy asarlar go'zallik qonuniyatlari asosida yaratiladi. Tashkil etuvchi qismlardan – ritm, simmetriya, proporsiya (shakl) va boshqalar maxsus bo'limga ajratilib, izohlab chiqilgan. Mazkur bitiruv malakaviy ishi uchun “Tong shabadasi” mavzusida kompozitsiyasi tasviriy san'atning manzara janrida ishlangan bo'lib, ushbu asar har bir inson ruhiyatini tabiatga yaqinlashtiradi.

Aytish lozimki, ushbu asarda olimlar tomonidan har qanday san'at asarini his qilishda zarur bo'ladigan go'zallikning doimiy elementlari ishlab chiqilgan. Ular odatda, san'at nazariyasida ifoda, badiiy va kompozitsion vositalar, xususan, kompozitsiya, nur va soya, kontrast, simmetriya, nisbat, plastikli, ritm, tonallik, dinamika, hajmlilik, arxitektonika, uyg'unlik deb yuritiladi.

Badiiy ijodiyotning ko'p asrlik tajribasi kompozitsiyaning bir qator qonuniyatlari ishlab chiqishga sharoit yaratib berdi. Ularga amal qilgan holda estetik botartiblikka oson erishilmoqda. “Tong shabadasi” mavzusida manzara kompozitsiyasidagi tabiatdagi yaxlitlik, simmetriya va ritm qoidalari o'ziga xos bo'lgan qonuniyatlar hisoblanadi. Xuddi shu xususiyatlariboshqa boshqa san'at asarlaridan alohida ajratib turadi. Yaxlitlik asarning uyg'unligi, tugallanganligi va konstruktiv aniqligini namoyon qiladi.

Manzara janrida yaratilgan har qanday san'at asarlarini his qilish jarayonini kompozitsiya tushunchasiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

“Tong shabadasi” mavzusida manzara kompozitsiyasining oʻziga xos psixologik xususiyatlaridan biri – unda tasvirlangan tabiat unsurlarini, borliqni butun psixik jarayonlar orqali his qilish bilan zavq olishdir. Kompozitsiyaning asosiy xususiyatlari – mantiqiylik, shakl aniqligi hamda qismlar mutanosibligidadir. Ushbu soʻz lotincha «composito» soʻzidan olingan boʻlib mutanosiblik, birlashuv, bogʻliklik degan maʼnoni anglatadi.

“Tong shabadasi” mavzusida manzara kompozitsiyasida barcha kompozitsion, badiiy va ifodaviy vositalar mavjuddir. Ushbu sanʼat asariga oid psixologik xususiyatlarni bilmasdan, uning mazmunini, mohiyatini badiiy his qilish xususiyati haqida muhokama yuritish qiyindir.

Rangtasvirning asosiy elementlari moy boʻyoqlar boʻlib, ular yordamida ushbu manzara janridagi kompozitsion asar yaratildi. Rang “Tong shabadasi” mavzusida manzara kompozitsiyasini badiiy his qilish psixologiyasida bosh vazifani bajaradi. Rangni his qilish jismoniy va ruhiy (psixologik) xususiyatlarga bogʻliq boʻlgan murakkab jarayondir.

Zamonaviy sanʼatshunoslik ikki sifatli darajani belgilaydi. Birinchisi – rangni sezish va uni badiiy qabul qilish. Ikkinchisi - rang hissiyoti tushunchasiga xam bogʻliqdir. Rangni sezish – eng sodda psixologik jarayon boʻlib, uni badiiy his qilish psixologik tartibning bir qator qonunlariga asoslanadi. Rang hissiyoti emotsional va estetik sohalarga tegishli. Rangni qabul qilish koʻzning holati, tomoshabinning ruxiy holati, yoshi, bilan belgilanadi. «Koʻz - astrologiyaning asosi hisoblanib, u kosmografiyani yaratadi, u insonlar yaratayotgan sanʼatni oʻz maslahatlari bilan kerakli yoʻlga yoʻnaltiradi» – deb yozgan edi Leonardo da Vinchi oʻzining «Rangtasvir haqidagi manbasida».

“Tong shabadasi” mavzusida manzara kompozitsiyasida foydalanilgan ranglardagi asosiy farq ochlik, rang tusi va toʻyinganligida boʻlib, rang dogʻi shu orqali xarakterlanadi. Ranglar aralashuvi kompozitsiyaning mohiyatini ochishda alohida ahamiyatga ega. Tabiatda toza rang yoʻq, barcha ranglar aralashadi. Kompozitsiyada kontrast usulidan foydalanildi. Kontrast – bir-biridan keskin farq qiluvchi tasavvur va omillarning qarama – qarshi qoʻyilishidir. Kontrastning

mohiyati shundaki, bir-biriga keskin qarama - qarshi bo'lgan buyumlar (predmet) yoki xolatlar birgalikda yangi tuyg'u va hissiyotlarni uyg'otadi. Rangtasvir san'atida kontrast universal vazifani bajaradi. Kontrastning ramziyligidan ma'lum bir dunyokarash, mazmunni ochib berish maqsadida foydalaniladi. Kontrast shakl yasovchi elementdir, u (bezakdorlik) dekorativlilik xususiyatlarini yaratishda ishtirok etadi. U nur – soya uyini, chiziqli perspektiva bilan birga fazoviy chuqurlikni yaratishga ko'mak beradi. Rang uyg'unligi, kolorit, nur – soya kontrastni o'z ichiga oladi. Kontrast ikki turi bulib – tabiiy-ilmiy aspektlar yordamida o'rganilib, xodisalarni psixofiziologik va estetik nuqtai nazardan bajariladigan tabiiy-ilmiy, xamda badiiy ifodalilik vositalari tizimida kontrastning o'zni aspektlarga bo'linadi. Kontrastning klassik misoli bo'lib – qor ustidagi soyalar hisoblanadi.

Rang hissiyoti deganda – rangni murakkab his etish jarayonini boyitish tushuniladi, bunda nafaqat rangning doimiy xususiyatlari xarakteristikasi, balki rang bilan bog'liq tasavvur, timsol, o'xshatma (assotsiatsiyalar)larning murakkab tizimi talqin etiladi.

Rang uyg'unligi mutanosibligi, muvozanat, hamohanglik kabi sifatlar bilan belgilanadi. Qonuniyat uyg'unlikning bosh belgisi hisoblanadi.

Ushbu qonuniyatlar tufayli tomoshabin ranglar majmuasini tartibga solingan estetik – ijobiy jamlanma sifatida qabul qiladi.

Rang timsollarning ruxiy (emotsional) xarakteristikasini yaratishda qatnashadi.

Rangni his qilishda hissiyotlar turli xil bo'ladi. Umuman bu kayfiyat – xursandchilik, qayg'u, iztirob, quvnoqlik hissiyotlardan iborat. Rangni badiiy his qilishga xamrohlik qiluvchi yana bir hissiyotlar (emotsiyalar) – vazm, harorat, fakturaga bog'liq bo'ladi. Va nihoyat ushbu ““Tong shabadasi” mavzusida manzara kompozitsiyasida rang ramziyligini oladigan bo'lsak, u orqali nafaqat estetik, balki dunyoviy mazmundagi ifodaviylikka erishish mumkin. San'atshunoslik adabiyotida yashildan to qizilgacha bo'lgan ranglar – iliq ranglar majmuasiga kiradi. Boshqalari esa, ya'ni moviydan och qizilgacha – sovuq ranglar majmuasiga kiritiladi. Yashil rang-betaraf (neytral) hisoblanadi. Xarbiy Evropaning rangni his etish

psixologiyasida ishlab chiqilgan ranglar ramzini O'rta Osiyoda XX asrning oxirida paydo bo'lgan ranglar ramzi bilan taqqoslash qiziqarlidir.

Taniqli nemis shoiri Gyotening so'zlariga ko'ra, ko'z yashil rangdan lazzatlanadi. Sariq rang jozibali bo'lib, u iliq taassurotlar va xush kayfiyatlilik uyg'otadi. Ko'k rang esa soya – salqinni eslatib, tanada sovuqlikni hosil etadi. Qizil rang jiddiylik, obro' bilan bir qatorda, joziba va nazokatlik xaqida taassurot beradi. G'arbiy Evropada yashovchi inson ranglarni mana shunday qabul qiladi.

O'rta Osiyo aholisi, sufizm falsafasiga asoslanuvchi musulmonlar esa ranglar ramziyligiga o'zgacha yondashishgan. Rang nazariya semantikasi nuqtai nazaridan qiziqarlidir. Tojik olimi A.Qurbonmamadov olib borgan tadqiqotlarga ko'ra, agarda so'fiy ilohiy go'zallikka cho'mish holatida bo'lsa, u qora rangli kiyimda bo'lishi kerak, agarda u ilohiy yuksaklikka cho'mish holatida bo'lsa oq rangli kiyimda bo'lishi lozim. Shuningdek ular ko'k, sariq va boshqa ranglardagi kiyimlarni ham kiyishgan. So'fiylar nazarida rang mistik quvvatga ega bo'lib, u e'tiqod qiluvchilarga ham ruxan, ham jismonan ta'sir o'tkazgan. Oq rangni ular soflik, tozalik, pokizalik, ko'ngilochar ramzi sifatida qabul qilganlar. E'tiqod qiluvchilar oq rangni beg'ubor, dunyo ne'matlaridan voz kechish ramzi deb bilganlar. Qora rang sufizmida inson ongi anglab eta olmaydigan qandaydir yashirin bir sir ramzini anglatgan. Qora rang sarosimalik va qayg'u, insonning Payg'ambar oldida kuchsiz ekanligini isbotlovchi rang deb bilingan. Qora rangda kiyingan insonning qalbi – boshqalar uchun sirlar kitobi sir bo'lgan. Qora rang – zulm, yovuzlik, baxtsizlik, xalokat va ayriliq rangidir. Bu ramzlar ko'pincha Sharq nazmida (she'riyatida) qo'llanilgan. Ko'k osmon rangi, ochilmas sir, xavf-xatar va ofat belgisi sifatida ta'riflangan. Ko'k rang etik mazmun ham baxsh etgan. U kamtarlik, soddalik, va abadiylikni anglatgan, hamda mustahkamlik va irodalik ramzi sanalgan. Yashil rang – sokinlik, osoyishtalik va Xudo bilan tilsiz muloqotda bo'lish rangidir. U ko'rish qobiliyatini ravshanlashtirib, etik jixatdan saxiylik, tobe'lik, Xudoga bo'lgan sadoqatni anglatgan.

Shunday qilib, ushbu bitiruv malakiy ishida “Tong shabadasi” mavzusida manzara kompozitsiyasi uchun foydalanilgan ranglar va ularning psixologiyasi bilan tanishdik.

Bundan tashqari “Tong shabadasi” mavzusida manzara kompozitsiyasida rassom-pedagoglarning psixik protsesslari muhim ahamiyatga ega. Ularda ana shu psixik protsesslar yuksak darajada rivojlanib, taraqqiy etgan bo’lsa, rassom yaratgan har qanday asar o’zining ruhiy olamini ocha oladi. Quyida “Tong shabadasi” mavzusida manzara kompozitsiyasi misolida rassom ijodkorning psixik jarayonlari bilan ijodiy jarayonlari uzviy bog’liqliklari haqida ma’lumot beriladi.

Tasviriy san’at asarlarining har biri o’zining ijtimoiy-psixologik xususiyatiga ega. Ana shu xususiyat ularning pedagogik tarbiyalovchi imkoniyatlari katta ekanligini ko’rsatadi. Ijtimoiy psixologiyada an’ana ajdodlardan avlodlarga o’tib keluvchi, o’z odatlari, qoidalari, qadriyatlar va tasavvurlariga ega, tarixan shakllangan faoliyat va xulq-atvor shakl sifatida talqin qilinadi. An’analar milliy xususiyatga ega, ular millat hayotidagi o’zgarishlar bilan birgalikda o’zgarib, yangilana boradi. An’analar odamlarning turmush tarzi, madaniyati, ma’naviyatini tartibga solib turuvchi muhim omildir. Tasviriy san’atda manzara janrida kompozitsiya ishlash murakkab jarayon bo’lib, butun ijodiy kuchni mujassamlashni, ishda aniq muntazamlilikni talab etadi, shuningdek, doimiy kuzatishni va o’rab turgan hayotimizni o’rganishni hamda asarda ijtimoiy hayot tarzini targ’ib qilishni taqozo etadi.

Buyuk san’at sohiblarining betakror asrlaridagi ilg’or g’oyalarda badiiy ijod olamining yashirin qirralari yoshlarimiz ongida uzoq o’tmishdan hikoya qiluvchi ertaklar kabi qalblarda go’zal tuyg’ular uyg’otadi. Tariximizda o’chmas iz qoldirgan sahifalar yoshlarimiz ruhiyatini yanada boyitadi.

Ijodkor har bir asariga insonlar qalbida joy olishi uchun unga yurak qo’rini to’kadi. Vujudida oqayotgan jo’shqinlik tanaga jon bag’ishlaydi.

Rassom san’at asarini yaratishda o’zida katta irodani ko’rishi lozim. Bu ishining muvofaqqiyatli chiqishiga turtki bo’ladi.

“Tong shabadasi” mavzusida manzara kompozitsiyasida ijodkorning irodaviyligi – ijod kuchining samarasini belgilagan, ijod uchun eng zaruriy psixik jarayonlardan biri hisoblangan. Iroda mehnat faoliyatining asosiy turi sifatida amalga oshsa-da, lekin mehnatning samarasi irodaviy xususiyatlarning namoyon bo'lishiga bog'liq. Irodasizlik ma'naviyatning kuchsizlanishiga olib kelishi, so'ngra jismoniy kuch va insonda dangasalik va xatto ongsizlikka olib kelishi mumkin. Bu holda insonning biror ahamiyatli narsa yaratishi xaqida gap ham bo'lishi mumkin emas.

Iroda psixologik nuqtai-nazaridan o'zida shaxsning ongli ravishda o'z xarakterlarini boshqaradigan psixik jarayon bo'lib, maqsadga erishish yo'lidagi qiyinchiliklarni bartaraf etish yo'lidagi ko'nikmasini egallashdagi urinishlarida namoyon bo'ladi. Iroda maqsadga etish uchun aqliy va jismoniy kuch-quvvatini ongli ravishda boshqara olish yoki aksincha qandaydir voqeani amalga oshirmoqlikdir. U faqat insonga hosdir. Iroda oddiy va murakkab xarakterlar orqali amalga oshadi. Murakkab irodaviy xarakterlar avvalo, anglash va masalani qo'yish, masalani qo'yish va rejalashtirish, rejalashtirish va maqsadni amalga oshirishni nazarda tutadi.

Iroda ma'lum xususiyatlari bilan xarakterlanadi: xarakatchanlik, mustaqillik, keskirlik, qat'iyatlilik, sabr-toqatlilik va o'z-o'zini boshqara olish. Irodaviy xususiyatlarning namoyon bo'lishi, irodaviy imkoniyatlarni so'zsiz, quyidagi psixik jarayonlar – hayol, sezgi, xotira, tasavvur kabilar bilan bog'laydi.

Shunday qilib, iroda katta kuch sifatida ijodni aktivlashtiradi, yuqori natijalarga erishishi va yana rassomning shaxs sifatida shakllanishida yuzaga chiqadi.

Asar yaratayotgan ijodkorda avvalombor ilhomlanish vujudga kelishi kerak.

Ilhomlanish – insonning mehnat jarayonidagi eng ko'tarinki ruxiy holatidir. Rassomning ijodiy mehnatida ilhomlanish, aktiv ijod kuchlaridan biri sifatida ahamiyatli rol o'ynaydi. Ilhomlanish – go'yo ijodiy, ma'naviy, jismoniy jihatdan qattiq bosim berganday tuyulsa-da, lekin amaliy jihatdan rassom uchun bu vaziyat juda engil kechgan, unda hamma narsaga oson erishilgan, ijodiy topshiriqlar juda tez echilgan bo'ladi. Bu engillik shu narsa bilan bog'liq bo'ladiki, bunda rassom katta hayotiy taassurotlar zaxirasiga ega edi va katta qiziqish va quvonch bilan ishlagan

edi. Bunda uning ijodiy hayoli va obrazli tafakkuri faol ishlagan edi. Bularning barchasi sonning sifat darajasiga o'tishiga – natijada, qattiq ilhom bilan ishlangan mehnat badiiy asarni dunyoga keltirgan edi.

Hayol – ijodda asosiy va o'ziga xos natija ko'rsatuvchi ijodiy kuchdir. Badiiy ijodda uning ixtiyoriy, ixtiyorsiz, yaratuvchi ijodiy hayol kabi turlarining barchasi ishtirok etadi. Bular ichida albatta ijodiy faoliyatda ijodiy hayol katta o'rin tutadi.

Intuitsiya – sezgirlik, bu inson hayotida alohida fenomenal va murakkab faoliyat bo'lib, inson ruhiy faoliyatida – ya'ni ijodiy mehnatda, xususan badiiy ijodda katta rol o'ynaydi. Shu bilan birga so'zsiz intuitsiya xotira, tafakkur va obrazli tasavvur bilan jips aloqada bo'ladi.

Intuitsiya ob'ektiv borliqni aks ettiruvchi sifatida bo'lsada, uni rivojlantirish yo'llari ham bor. Ulardan asosiysi - organizmning biologik sifatlarini tarbiyalashdir (rassomning ko'zi, qo'shiqchining ovozi, musiqachining qulog'i va barmoqlari, raqqosaning qomati) kuzatuvchilikni o'stirish, xotiraning xajmi va ishchanligini ko'tarish, tafakkurni rivojlantirish (jumladan, obrazlilikni), hayol, hissiyotni tushunish, birmaromlilik, uzluksiz mehnat va yangi echimlarni har tomonlama izlash kabilardir.

Tafakkur – ijod kuchlaridan biri bo'lib, borliq materiallari haqida fikrlashda, tahlil qilishda idrok, sezgi, hissiyot va esda qoldirishda asosiy rol o'ynaydi. Xotira vositasida, ya'ni, badiiy asar yaratish maqsadida, tafakkur ishtirokida borliqni chuqur va har tomonlama bilishning oliy jarayoni hisoblanadi, predmet va voqealarning belgilari va o'zaro bir biriga qonuniy bog'langanligi bilan, umumiy va ichki xususiyatlarini ochishga yo'naltirilgan holda namoyon bo'ladi.

Badiiy asar inson faoliyatining boshqa sohalaridagi kabi, tafakkurning mahsuli hisoblanadi.

San'at asari faqat tasviriy materialni o'z ichiga olibgina qolmay, balki g'oyaviy-estetik mazmun, dunyoqarash, falsafiy tushunishni ham qamrab oladi.

Rassomning tafakkuri ijodiy xarakteri bilan ajralib turadi, u ijodiy hayol bilan birga xarakatlanadi va san'at spetsifikasi xususiyatlari bilan bog'liq ravishda ishlaydi.

Emotsional to'liqlanish – ijodning kuchlardan biri sifatida rassom uchun juda zarur hisobladi. U shuning uchun zarurki, ular orqali hayotdan ancha yorqin taassurot olishnigina emas, balki rassom o'zida bu to'liqlanishni o'tkazadi.

Shunday qilib hissiyot reproduktiv ijod kuchi sifatida olamni aks ettiruvchi, ayni bir vaqtda hayotda yangilik yaratishga yordam beruvchi sifatida san'atga individual munosabat paydo qiladi va borliqning obrazini shoironalashtiradi.

Xotira – xuddi hissiyot kabi badiiy ijodning reproduktiv kuchi hisoblanib, u o'z navbatida o'zida eng zaruriy psixik jarayonni – odamning o'tgan tajribasini namoyon etadi. Jumladan, yodga olish, yodda saqlash va so'ngra shunday narsa yaratiladiki, uni o'tmish tajriba mazmuni bilan bog'lamasdan xotiraning aralashuvisiz borliqni, jumladan, badiiylikni ham idrok etib bo'lmaydi. Xotira badiiylikni aks ettirishda xizmat qiladi. Inson hayotida va har qanday faoliyatida xotirani chetlab o'tolmay qoladi, xususan u o'sha taassurotlar bilangina yashab yuradi. U o'tgan, ko'rganlarini, anglaganlarini va taassurot materiallarini tahliliga ko'ra, tafakkurning natijalaridan foydalanishi zarur bo'ladi. O'tmish tajriba faqat xotira evazigagina saqlanib qolishi mumkin.

Rassomning xotirasi etarli taassurotlar zahirasiga ega bo'lgandagina u naturasiz ishlay oladi. Tasviriy ijod xotiraviy obrazlarsiz bemaqsad va befoydadir.

Naturadan ishlashda olingan tasavvurlari yig'indisi va ko'rish taassurotlari (to'liq obrazli) asarni qamrab oluvchi qimmatli obrazlar yaratishga imkon beradi. Rassom chizishni, yozishni, yasashni va hokazolarni tasavvur va xotira asosida bajarishi, u naturadan qanday ishlasa, «o'zidan» ham shunday ishlay olishi shart. Xotira boy bo'lmog'i uchun rassom uni doimo rivojlantirmog'i, mashq etib bormog'i zarurdir.

Hech bir rassom o'zi yaratayotgan asarini ya'ni predmetini, psixologiyasini hamda u to'g'risidagi ma'lumotlarni bilmay turib uni tasvirlay olmaydi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishi “Tong shabadasi” mavzusida manzara kompozitsiyasining psixologik xususiyatini ochib berilar ekan, avvalombor manzarada asosan nimalar tasvirlanganligi, ularning qay tarzda turganligi diqqatimizni tortadi.

“Tong shabadasi” mavzusida manzara kompozitsiyasining milliy va an'anaviy tarzda ifoda etilganini nafaqat tashqi ko'rinishidan, balki, ichki hislari bilan ham yaqqol tasvirlanganini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni tabiat manzarasini chizish mavzusida ishlangan kompozitsiyaga nazar tashlagan har bir inson birinchi bo'lib undan ma'naviy ozuqa olishga intiladi. Shung bilan birga ranglar jilvasidan, tabiatning tog'li manzarasidan to'la bahramand bo'lishga, ruhiy dam olishga chog'lanadi.

II.BOB. MAKTAB TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA TABIAT MANZARASINI CHIZISH MAVZUSIDA KOMPOZITSIYA YARATISHNI O'QITISH TEXNOLOGIYASI

2.1 Tabiat manzarasini chizish mavzusida kompozitsiya ishlash mashg'ulotlarida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash

Tasviriyschan'at o'quv mashg'ulotlarida tabiat manzarasini chizish mavzusida kompozitsiya ishlash o'z oldiga:

- manzara janrida kompozitsiya ishlash bo'yicha bilim berish;
- ijodkorlikni tarbiyalash, ijodiy qobiliyatlarini o'stirish;
- bilish aktivligini oshirishni maqsad qilib qo'yadi. Bu maqsadni muvaffaqiyatli amalga oshirish yo'lida o'quvchilarlar bilan o'qituvchi rahbarligida bir qator o'quv-tarbiyaviy ishlarni olib borish ko'zda tutiladi.

Kompozitsiya o'quv mashg'ulotining vazifalari quyidagilardan iborat:

1. O'quvchilarda keng, umuminsoniy dunyoqarash, jamiyat taraqqiyoti g'oyasi uchun kurashishni shakllantirish.
2. O'quvchilarda badiiy did, badiiy estetik madaniyatni tarbiyalash.
- 3.O'quvchilarda: a) obrazli tafakkur; b) ijodiy fikrlash; v) ko'rish xotirasi kabi badiiy qobiliyatlarni o'stirish.
- 4.Asarlarni kompozitsion qurilishni tahlil qilish bilan birga asarni yaratilish tarixi, uni yaratish jarayoni va bosqichlarini o'rganish.
- 5.San'at asarlarini kompozitsion masalalar aspektida tahlil etish bo'yicha bilim va malakalarni egallash, hamda undan o'z mustaqil ijodlarida foydalanish.
- 6.O'quvchilar tomonidan o'quv mashg'uloti sifatida kompozitsiya ishlashning nazariy asoslari o'rgatish.
- 7.O'quvchilar bilan kompozitsiyaning nazariy asoslarini san'at asarining tarixiy rivoji va amaliy yaratilishi bilan o'zaro bog'liqlikda o'rganish.
- 8.O'quvchilarda badiiy kuzatuvchanlikni rivojlantirish maqsadida:

a) o'quvchilarni rassom nuqtai-nazari bilan tevarak atrofni maxsus bir maqsadga qaratilgan g'oyaviy-badiiy kuzatishga o'rgatish;

б) hayotiy taassurotlarga ijodiy holda yondoshishga o'rgatish, xotirani boyitish va bu taassurotlarni xaqqoniy, obrazli holda ijodda tasvirlash;

b) o'quvchilarni badiiy kuzatish asosida qoralama, etyud, homaki tasvirlar chizish, naturadan xar xil mashq va izlanishlar olib borish, naturadan obrazlilik holatlarini topish, kompozitsion ishlar bajarish.

9.Mazmunida obrazli xulosa bo'lgan kompozitsiya yaratishga o'rgatish.

10.Kompozitsion mahoratni egallash, ana shu bilim va malakalarni o'quv va mustaqil ishlarida o'rinli ishlata olish.

Tabiat manzarasini chizish mavzusida kompozitsiya ishlashning tasviriy san'at darsida amaliy-auditoriyaviy ishlari quyidagi tartibda olib boriladi:

a) kirish suhbat va topshiriqlar olish;

б) amaliy mashq bajarish;

b) bajarilgan ish muhokamasi, uni mustahkamlash va xulosa chiqarish.

Mashg'ulot davomida o'quvchilar kompozitsiya bo'yicha mustaqil uy vazifalari ham bajarib boradilar. Uy vazifalari bajarishning turli ko'rinishlarini tavsiya qilish mumkin, masalan ulardan:

a) kompozitsiya eskizi bo'yicha ishlash;

b) amaliy topshiriq mavzusiga bog'liq bo'lgan holda tevarak-atrofni, hayotni kuzatish;

v) mavzu bo'yicha etyud, qoralama va homaki rasmlar bajarish;

g) kompozitsion fikrlashni o'stirish mashqlarini (ranglar koloritini his qilish, kompozitsion yaxlitlikni topish) bajarish;

d) kompozitsion vazifalarga oid yangi materiallar bilan tanishib borish;


e) adabiyot va muzey materiallari asosida maishiy hayot va davr qaxramoni xarakterini o'rganish kabilar bo'lishi mumkin.

Quyida tasviriy san'at darslarida tabiat manzarasini chizish mavzusida kompoziya ishlash o'quv mashg'ulotining taxminiy dars ishlanmasi va o'quv jarayonini samarali tashkil qilishning texnologik xaritasi berilgan. (1-2 ilovalar)

1-ilova

DARS ISHLANMA

MAVZU: “Tabiat manzarasini chizish” mavzusida kompozitsiya ishlash



MAVZU: TABIAT MANZARASINI CHIZISH MAVZUSIDA

KOMPOZISIYA ISHLASH

Ta'lim berish texnologiyasining modeli

Mashg'ulot vaqti 45 min.	O'quvchilar soni: 20
Mashg'ulot shakli	Mavzu bo'yicha bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash yuzasidan amaliy mashg'ulot
Amaliy mashg'ulot rejasi	<ol style="list-style-type: none">1. Tabiat manzarasi chizish mavzusida kompozitsiya ishlash haqida umumiy tushuncha.2. Kompozitsiya ishlashning tasviriy san'atda o'рни va ahamiyati.3. Manzara janrida kompozitsiya ishlagan buyuk rassomlar ijodi bilan tanishish.4. Tabiat manzarasi chizish mavzusida kompozitsiya ishlashning qonun-qoidalarini o'rganish.5. Amaliy mashg'ulotda tabiat manzarasi chizish mavzusida kompozitsiya ishlash.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: mavzu bo'yicha umumiy tushuncha berish. Amaliy mashg'ulotda tabiat manzarasi chizish mavzusida kompozitsiya ishlash. Tabiat manzarasi chizish mavzusida kompozitsiya ishlashning qonun-qoidalari bilan tanishish va mustaqil kompozitsiya ishlashga o'rgatish.	
Pedagogik vazifalar: • Tabiat manzarasi chizish mavzusida kompozitsiya ishlashning qonun-qoidalari bilan tanishish;	O'quv faoliyati natijalari: • Tabiat manzarasi chizish mavzusida kompozitsiya ishlashning tasviriy san'atda tutgan o'рни, badiiy tahlilini tizimli tushuntirib beradilar;

<ul style="list-style-type: none"> • Mustaqil kompozitsiya ishlashga o`rgatish ko`nikmasini hosil qilish. • Kompozitsiya haqidagi bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish. • Tabiat manzarasi chizish mavzusida kompozitsiya ishlash bo'yicha nazariy-amaliy, ijodiy bilimlarni rivojlantirish. 	<ul style="list-style-type: none"> • Kompozitsiya va uning qonun qoidalari haqida aytib beradilar. • Tabiat manzarasi chizish mavzusida kompozitsiya ishlashni bosqichma-bosqich o'rganadilar; Manzara janrida mustaqil kompozitsiya ishlashni o'rganadilar.
<i>Ta'lim berish usullari</i>	Suhbat, ijodiy, "Klasster" metodi
<i>Ta'lim berish shakllari</i>	Guruhlarda ishlash, yakka tartibli
<i>Ta'lim berish vositalari</i>	O'quv qo'llanma, proektor, flipchart, markerlar, moy bo'yoqlar, goznak qog'ozi, planshet, malbert, qora qalamlar, bo'yoq cho'tkalari va h.k
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	Texnik ta'minlangan, tasviriy sa'at darslari uchun mo'ljallangan xonalar
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat: amaliy-ijodiy ishlar, eskizlar

**Tabiat manzarasi chizish mavzusida ishlangan kompozitsiya
bo'yicha amaliy mashg'ulotning**

TEXNOLOGIK XARITASI

Faoliyat boskichlari	Faoliyatning mazmuni	
	<i>Ta'lim beruvchi</i>	<i>Ta'lim oluvchilar</i>
Тайёрлов bosqichi (3- <i>daqqa</i>)	<p>Mavzuni aniqlaydi, ta'limiy maqsadni belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi.</p> <p>Belgilangan ta'limiy maqsadlarga mos o'quv bilish muammoli vazifalarni ishlab chiqadi. Samarali ichki guruhlar ishini ta'minlovchi guruhlar uchun yozma yo'riqnomalarni tayyorlaydi.</p>	
1. Kirish bosqichi (5 <i>daqqa</i>)	<p>1.1.Mavzuning nomi, maksadi, ukitish natijalarini, mavzuning rejasini eslatadi.</p> <p>1.2.Guruhlar ishini baxolash mezonlarini e'lon qiladi (1-ilova).</p>	<p>Tinglaydilar. Bajaradilar.</p>
2. Asosiy bosqich (35 <i>daqqa</i>)	<p>2.1.O`quvchilarni faollashtirish maqsadida suhbat va “Klasster” metodi asosida savol-javob usulini qo'llaydi:</p> <p>1.Kompozitsiyaga ta'rif bering.</p> <p>2.Manzara janrida ishlangan kompozitsiyalarning tasviriy san'atda tutgan o'rnini javoblarni umumlashtiradi.</p> <p>2.2. O`quvchilar diqqatini jamlash maqsadida “Klasster” metodidan foydalanib, mavzuning nazariy asoslarini ochish. (2-ilova)</p>	<p>Savolga javob beradilar.</p> <p>Yakka tartibda bajargan ishlarini guruhlarda muhokama qilib, yagona to'g'ri fikrni tanlaydilar</p> <p>Har bir o'quvchi tayyor ishlarni olib</p>

	<p>Mavzudan o'zlashtirilgan bilimlar doskada chizilgan klasster aylanalari ichiga yozib boradi.</p> <p>O`quvchilar faoliyatini nazorat qiladi, yo'naltiradi, maslahat beradi. Baholash mezonlarini eslatadi.</p> <p>2.3.Bajargan ishlarini takdim kilishlarini so'raydi. Taqdimot jarayonida talabalar ijodiy ishlarini badiiy tahlil qiladi, faol o'zlashtirganlarini rag'batlantiradi.</p>	<p>chiqib malbertlarga iladi va takdim qiladi.</p> <p>Kompozitsiyada ilgari surilgan g'oyalarni asoslaydi.</p> <p>Boshqa ishtirokchilar. tomonidan berilgan savollarga javob beradi.</p>
<p>3. Yakuniy bosqich (2 daqiqa)</p>	<p>3.1.Mavzuni umumlashtiradi, xulosalar qiladi, yakun yasaydi.</p> <p>3.2.Guruhlar ishini baholaydi, faol ishtirokchilarni alohida qayd qiladi va baholarni e'lon qiladi.</p> <p>3.3. Mustaqil ishlashlari uchun tayyorgarlik ko'rib kelish vazifasini beradi (4,5- ilovalar).</p>	<p>Eshitadi.</p> <p>Vazifani yozib oladilar.</p>

2.2. O`quvchilarga plenerda naturani yaxlit idrok qilish va rang munosabatlari bilan ishlash metodlarini o`rgatish.

Manzaraning rangtasviri - rangtasvir dasturining kerakli bo`limi bo`lib, rassom-pedagoglarni tayyorlash jarayonida muhimdir

Tabiat benihoya jozibali va go`zaldir. Quyosh nuri va atrof muhit cheksiz turli ranglarni hosil qiladi.

Manzara tasviriy san`atning eng hissiyotli janrlaridan biri hisoblanadi. Go`zal manzara asarlar o`zining nafosatli ta`siri bilan insonki ma`naviy boyitishga erishadi.

Ona tabiat qo`ynida bo`lish ijodiy fikrlar tug`ilishi va ruhlanishni o`zgarmas manbai hisoblanadi. Rassom biror bir joyni tasvirlashda o`sha muhitni chuqur o`rganmay, tahlil etmay hayolan tasvirlasa bu ish soxta chiqib tomoshabinni o`ziga jalb eta olmaydi. Muntazam ijod etish rassomni nozik sezishga va tabiatni ma`lum holatini rangli va tusli xususiyatlarini to`laqonli etkazishga o`rgatadi.

Dala amaliyotida ijod qilish xona ichkarisidagi ishlash sharoitidan farqlanadi. Kuchli yorug`likni hosil qiluvchi yoruglikni ko`pligi, reflekslarni turli-tumanligi, manzara obektlarini kuzatuvchidan yiroqligi, yoritilishning tezlik bilan almashishi, yil fasli va ob-havoni turli holati - buning hammasi yosh rassomga yangi va odatlanmagan sharoitdir.

Manzara etyudining muhim afzalligi tabiatning ma`lum holatini, yoritilganligini havoii muhit tasirini ma`noli makonni etkazishdir. Manzara tasvirini bunday sifatlariga rassom havo perspektiva qonuniyatlariga amal qilish munosabatlari bilan ishlash metodi, -umumiy tus va rang holatini to`g`ri topish yordamida erishadi. Manzara ob`ektlari va narsalarni rang och-to`qligi va to`yinganligi bo`yicha taqqoslash, solishtirish, ularning naturadagi farqlarini belgilash bular etyudning rangli munosabatlarini to`g`ri ifodalashda asos qilib olishdi. Manzara etyudini mahoratli tasvirlash demak uning rang munosabatlarini naturada ko`rinayotganday o`xshatib bajarishdir.

Bundai talablar natyurmortning rangli tasvirida ham asos bo'lgan. Manzara etyudining birinchi mashqlaridanoq naturani xaqqoniy tasvirlash uchun rangning och-to'qligi va to'yinganligi, rang munosabatlarini aniq bilish muhimligini tushunish kerak.

Manzarani kuchli quyosh nuri bilan yoritilganlik darajasini rassom teng ravishda palitraning bo'yoqlar doirasiga o'tkazadi. so'ngra tomoshabin etyuddagi ko'rinishni absolyut yorqinlikda emas, balki naturaga teng ravishda etyuddagi rang munosabatlarini o'rnatilganligi tufayli qabul qiladi.

Manzarada yoritilish darajasi kuch jihatdan ham rang jihatdan ham juda tez o'zgaruvchidir. U yil fasllariga qarab bulutli havo yorug'lik nurlarini tushish burchagiga (ertalab, kunduzi, kechqurun qarab o'zgaradi kunning qoq peshindagi yoritilish ertalabki va kechkiga qaraganda yuz barobar kuchlidir. Shuning uchun etyuddagi tus munosabatlari ma'lum tusdagi va rangdorlik darajasida saqlanib turishi kerak. Ayrim holatda rang qo'llash so'ng old, o'rta ko'rinishdagi mayda bo'laklarni bajarishga o'tiladi va xakazo.

Tajribasiz rassom uzoqda joylashgan (100-300 m) ko'katlar rangini xuddi oldida turgandek ko'radi. Vaholanki, yiroqdagi rang mutlaqo boshqacha ko'rinadi: yashilning nozik ranglari va uning to'yinganligi uzoqlashish ta'sirida albatta o'zgaradi. Tajribasiz rassomlarning asosiy kamchiligi: ishni yaxlit ko'rmaslik, mayda shakllarni tasvirlash bilan chatib ishni samarali yakunlay olmaydilar.

Tabiatdagi narsalarning ranglari yoritilish kuchi va spektr birikmalariga bog'liq (kunduzi, kechqurun, quyoshli kunda, bulutli ob-havoda) holda o'zgaradi. Masalan, kechqurun quyosh botish vaqtida qayin tanasi zarg'aldoq qizil tusda ko'rinadi. Shunday bo'lsa ham tajribasiz rassom qayin tanasini oq rangda tasavvur etadi.

Manzarani rangli tasvirlash jarayonida narsalarning predmetlik ranglarini yoddan chiqarish ko'nikmasiga erishish (shaxsiy rangini), yorug'lik ta'siri va uzoqlashgandagi ranglarni sezish mahoratini rivojlantirish zarur. Ayniqsa, ta'limning boshlang'ich davrida plenerdagi rangtasvir bo'yicha vazifa va mashqlar huddi shunga bag'ishlangan bo'lishi kerak.

Manzara rangtasvirini boshlang`ich davr dasturini juda yahshi o`zlashtirish uchun quyidagi mavzulardagi vazifalarni bajarish kerak.

- 1) plener ochiq havo sharoitida naturani yaxlit idrok etish va rangdorlik munosabatlari bilai ishlash usuli:
- 2) asosiy rangdorlik munosabatlarini qabul qilish va tasvirlash:
- 3) Umumiy tus va rangdorlik holati.
- 4) Manzara ob`ektlarini kolorit yaxlitligi va yoritilish rangi:
- 5) Manzaraning mayda bo`laklarini tasviri:
- 6) Manzarada kenglik.

Xaqqoniy tasvirlash etyudning rangdorlik qatorini qurilishiga, naturaning rang munosabatlari mutanosibligiga asoslanadi. Rang munosabatlarini aniqlanishi birvaqtning o`zida manzara obektlarini yaxlit taqqoslashda amalga oshiriladi. Shuning uchun plenerda ishlashdan oldin e`tiborni mavjud ko`rinishni hammasini yaxlit idrok etishga yo`naltirish muhim. Faqat shunday yaxlit ko`rish manzaraning asosiy obektlari (osmon, er, suv, old va uzoqdagi ko`rinishlari) orasidagi ranglar farqini aniqlashga imkoniyat tug`diradi. Manzaraning (osmon, er, daryo va x.k.) barcha obektlarini ishlash vaqtida birdaniga yahlit ko`rish qiyin. Manzaraning barcha obektlarini yaxlit idrok qilish uchun ancha kengroq ko`rish maydonini talab qiladi. Naturani yaxlit qabul qilishda yordam beradigan mashqlarga intererdagi natyurmortni bajarish, keyin esa, ayvonda yoki ochiq derazani tokchasida turgan gullar dastasini tasvirlashni maslahat beramiz. Mashqlarni bajarishda natyurmort, interer, gullar dastasi, deraza pardasi, deraza orqasidagi shahar ko`rinishlarini ham birdaniga idrok qilib ko`rish juda muhim.

Har qanday tasvir mayda qismlardan emas, yahlitlikdan boshlanadi. Dastlab katta umumiy shakl topiladi, keyin esa mayda bo`laklari ishlanadi. Shu munosabat bilan tasvirlash jarayoni qoidasi mavjud: umumiydan-mayda bo`laklarga va yana umumlashtirishga. Manzara etyudini ishlash yahlit asosiy munosabatlarni qurishdan manzaraning asosiy obektlari (osmon, er, suv, old, o`rta va olisdagi ko`rinishlari bilan) orasidagi rang farqlaridan boshlanadi. Manzaraning obektlaridagi asosiy munosabatlarni to`g`ri olinishi keyingi rang qurilishi, mayda bo`laklarni

tasvirlashda ishni osonlashtiradi. Agarda asosiy rang munosabatlari noto'g'ri topilgan bo'lsa, reflekslar va ranglardagi nozik farqlar, mayda qismlarni qanchalik sinchiklab (astoydil) bajarilmasin, mazmunli tasvir hosil bo'lmaydi.

Plenerda boshlangich ishlar jarayonida kichik etyudlar (15x10 sm) bajarish zarur. Qo'yilmadagi keskin kontrastlar (tusli va rangdorlik) ko'rish taassurotlari bo'yicha taqqoslanadi. Birinchi navbatda old ko'rinish munosabatlari olisdagiga nisbatan aniqlashtiriladi. Qoida bo'yicha kichik o'lchamdagi etyudlarda maydalangan qismlarni idrok etish mumkin emas. Yosh rassom naturani aynan «ko'chirmasdan», balki yaxlit raig munosabatlarida tasvirlaydi.

Tus va rang munosabatlari metodi bilan etyudni bajarish aslida naturadagi och-to'qlik, intensiv va to'q ring dog'larni aniqlashdan boshlanadi. Ular oraliqdagi tus va rang dog'larini kuchi jixatdan taqqoslanadi. Manzarada, masalan, quyosh nuri bilan yoritilgan yashil yalanglik eng yorug' va rang bo'yicha yorqin bo'lishi. to'q tusda esa old ko'rinish fon sifatida kulrang mato tanlanib, boshning yorug tarafi to'q, soya tarafidan esa och bo'lib kuringani ma'qul. Soya tomonda shakl aniqligiga erishish uchun yorug'lik qaytaruvchi tekislikdan foydalanish mumkin. Aynan shunday sharoitda yuzning soya qismida anatomik aniq chiziqlarni ko'rish mumkin.

Manzaraning umumiy rang munosabatlarini topish maqsadida talaba vazifani etarli darajada savodli uddalay olmasa qisqa vaqtli etyudlarni ko'p marta takrorlash zarur. Dastlab tasvirlash uchun uncha murakkab bo'lmagan yopiq kenglikli syujetlar (masalan, qisman hovlili uyni va h.k.), obektlar bo'lib hizmat qilishi mumkin. Keyin vazifani biroz murakkablashtirib, bir nechta ko'rinishga (old, o'rta va uzoq) ega bo'lgan ochiq kenglikdagi manzarani tanlash zarur. Bu etyudlarda esa e'tiborni havoiiy perspektivaga, osmon rangi, manzaraning barcha ob'ektlarini nozik farqlari bo'yicha och-to'qligi va to'yingan ranglarining o'zgarishlariga qaratish kerak. Ularni baravar idrok qilishda manzrani barcha ko'rinishlarini taqqoslash yo'li bilan sezish mumkin. Masalan, old ko'rinishdagi daryo qirg'og'ini ikkinchi va yiroqdagi ko'rinishlari bilan bir vaqt o'zida osmonning suvdagi aksi bilan ham qiyoslanadi Etyudning rangdor munosabatlari yaxlit belgilanmaguncha uning bir qismini tugatish mumkin emas. Har bir etyud 30 daqiqadan 1 soatgacha

davom etadi.

Manzara etyudida echiladigan muhim vazifa-turli ob-havoda, kunning istagan vaqtini, yoritilgan holatini tasvirlashdir. Professional tilda buni umumiy tus va holatini ko'rsatishga aytiladi. Xoxlagan etyudning rang qatori faqat narsaning ranglaridagi tus va rang munosabatlariga mos bo'lmasligi kerak. Etyudning rang farqlari albatta naturaning yoritilgan holatini hisobga olib qurilishi kerak.

Bulutli kunda ko'katlar rangi ancha quyuyq (qoramtir) va kam to'yingan bo'ladi. Qosh qorayganda hamma narsalar to'qlashadi, qizil, zarg'aldoq va sariq ranglar to'yinganligi jihatidan xiralashadi, yashil bilan zangori rang esa faollashadi. Shuning uchun bunday holatlarni hisobga olmasdan manzarani tasvirlab bo'lmaydi. Kunning istalgan vaqtida yoki turli ob-havo sharoitida tasvirlangan etyudlar, umumiy tus va rang jixatdan bir-biridan farq qilishi lozim.

«Manzarada - deydi R.Falk, - asosiysi - havoiiy muhitning rangli holatidir».

Manzara ko'rinishlarini yuqori yoki past darajada yoritilgan holatini tasvirlash uchun to'liq diapazonli och-to'q, yorqin va qoramtir bo'yoqlardan rassom har doim ham foydalana olmaydi. Ishni boshlashdan oldin rassom etyudda naturaning eng yorqin va intensiv qismlarini qanchalik yorug` va rang kuchlariga ega ekanligini aniqlaydi. Quyoshli kunda etyud bajarishda palitradagi yorqin va jozibali diapazonini to'liq ishlatadi. Kechqurin yoki bulutli kunda etyuddagi rang munosabatlari to'qroq va kam to'yingan bo'yoqlar bilan ifodalanadi. Rangtasvirchi shunday qilib tus va rang ko'lamini saqlab qoladi. Masalan, I.Repinning «Kursk guberniyasida cherkov namoyishi» kartinasida ranglar nihoyatda jozibali. U asarda quyosh nurini sezdira olgan. Uning «Targ`ibotchini hibsga olinishi» kartinasi qoramtir va quyuyq bo'yoqlar bilan tasvirlangan.

Manzara etyudining yoritilishi holatini puxta o'rganish uchun bulutli, quyoshli kunda, yoz va qishda aynan bir mavzuni tasvirlash juda foydali. Qator bajarilgan etyudlarni solishtirib, manzaraning turli holatini jozibali xususiyatlarini sezish

mumkin: barcha etyudlarda eng yorqin va ravshan dog`lar palitraning yorqin to`yingan bo`yoqlarida tasvirlangan.

Manzara ob`ektlarida kolorit birligi va yoritilish rangi.

Manzarani munosabatlar metodi bilan tasvirlash jarayonida yosh rassom tabiatning haqiqiy bo`yoqlarini tushunishga ularning asl rangini umumiy tusi bilan mosligini ko`rishga birdaniga erishmaydi. Tabiatdagi bo`yoqlarni noto`g`ri tahlil etish natijasida rassom rang va tus munosabatlarini adashtirib etyudni jozibali chiqishiga erisha olmaydi. Ayniqsa tajribasiz rassom yoritilishning umumiy rang ta`sirida tabiatdagi o`zgargan ranglarni yaxshi sezmaydi.

Ertalabki quyosh barcha narsalarga va manzara ob`ektlarni pushti sariq nozik rangni. kunduzgi quyosh esa oltinsimon kechqurungisi to`q sariq yoki qizil rangni baxsh etadi. Tungi oy yorug`ligi narsalar rangini ko`kintir yashil tomonga o`zargiradi. Elektr chirog`ida narsalar och-to`q sariqni, sham esa to`q sariq bo`oqni xadya etadi. Demak, yoritilishning o`zgaruvchan sharoitida narsalar rangi yoritilish manbai ta`sirida bo`ladi.

Yoppasiga bulutlar quyuni bilan qoplanib yorug`ligi tarqagan osmonda narsaning shaxsiy rangi ko`proq namoyon bo`ladi. Bulutli kunning engil tekis yorug`ligi narsalarning shaxsiy ranglaridagi xarakter va xususiyatlarini aniqlashga imkon tug`diradi.

Manzaraning turli yoritilgan holatdagi etyudlarni bajarish uchun bulutsiz quyoshli kun, bulutli osmondagi quyosh yorug`ligi, kunbotar vaqt. bulutli kun, qosh-qoraygan paytlarni tanlash mumkin.

Bunday yoritilgan sharoitlarda mashqlarni bajara turib barcha e`tiborni tabiatdagi umumiy tus va rang holatini o`zgarishlariga qaratish lozim. Manzara etyudlarida tus va rang yaxlitligi va birligini yo`qligi ranglarning maydalanishiga va pala-partishlikka yo`l qo`yilishi ishni sifatini buzadi. Bunday etyud ifodali bo`la olmaydi va tomoshabinga nozik ta`sir etmaydi M.A.Vrubelning «Nastarin» va

I.N.Kramskoyning «Oydin" kecha» mavzuidagi asarlari rang jozibasi bilan, hamda asarning yaxlit topilishi bilan tomoshabinni o‘ziga maftun eta oladi.

Manzarada mayda bo‘laklarni tasvirlash.

Mazmun jihatdan ancha murakkab va uzoq davomli manzara etyudlarini ishlashga o‘tshsdan oldin, naturaning umumiy ranglar munosabatini tasvirlashga qisqa vaqtli etyudlarni bajarish bilan, masalan, arralangan daraxt tanasining bir bo‘lagi yoki bir nyocha toshlar, osmondagi bulutlar to‘plami kabilarni ishlash zarur.

Ranglar dog‘i o‘z-o‘zidan narsa yoki ob‘ektning aniq shakllarisiz bezakli tasvirlan boshqa hech narsani ifodalamaydi, «Tabiatni to‘laqonli tasvirlash va uning go‘zalligini ko‘rsatish uchun deydi T.Russo - daraxtlar yerda mustahkam turishi, ularning shoxlari esa oldinga intilishi qolgan qismi polotno ichiga kirib ketgandek tuyulishi, xuddi tomoshabin daraxtni atrofida aylanib o‘ta oladiganday tasavvur qilishi kerak. Xar bir bo‘yoq surtmasi shunchaki yuzaki qo‘yilmasdan. xar bir surtma yaxlit bo‘lishi va biror-bir narsani aniq ifodalashi kerak». Etyudda aniq ob‘ektlarni tasvirlash ishi naturadagi manzara va muhit detallaridagi asosiy rang munosabatlarini aniqlashdan boshlanadi. Keyin esa ob‘ekt shakli. uning hajmi va x.k. astoydil ishlab chiqiladi. Bularning hammasi yoritilishni umumiy kolorit holatini to‘g‘r xisobga olib rang bilan hal qilinadi. Manzarani tasvirlashda tabiatni sinchiklab o‘rganishni talab qiladi. Har bir daraxt alohida o‘zining xarakterli tuzilishiga ega.

Tabiatni turli holatlarda, ko‘katlar bilan butalar, har xil daraxt turlari va xarakterli xugusiyatlarini rang bilan tasvirlashni o‘rganish uchui naturadan juda ko‘p etyudlar bajarish kerak. Manzaraning obektlarini bo‘yoqlar orqali tasvirlash bilan barobarida qalam bilan ularning murakkab shaklini chizish ham zarur.

Manzarani alohida obektlarini va mayda bo‘lak ishlanmalariga qaratilgan mashqlarni bajarish bilan bir qatorda ochiq havoda qator natyurmortlar bajarilsa yaxshi bo‘ladi. Plenerda (quyoshda, soyada va x.k.) yoritilish sharoitiga qarab natyurmortni joylashtirib qator mashqlarni bajarish maqsadga muvofiqdir. Daraxt

soyasiga qo'yilgan natyurmort osmon va daraxt yaproqlari reflekslari ta'sirida o'zgacha ko'rinadi.

Yashil yaproqlar va ko'k osmon — bu ikki rang natyurmortning barcha ranglar qatori belgilaydi. Bunday natyurmortga misol tariqasida A.A.Plastovning «Yoz» kartinasini ko'rish mumkin. Daraxt soyasida qiz bilan ayol tasvirlangan. Osmondan kumushsimon sovuq rang, soyalari esa yashilroq ranglarga ega.

Ko'pgina aks va shu'lalar mavjudligi tufayli bulutli ob-havoda yorug`-soyalar o'z kontrastligini yo'qotadi va engil tashqi ko'rinishlari va yumshoq soyalari bilan fazoviy muhitni yaratadi.

Shakllarni modellash shunday amalga oshiriladiki, har bir narsa hajmini va materialligini umumiy yoritilish va muhit ta'siri natijasida paydo bo'lgan nozik ranglar bilan ko'rsatiladi.

Bulutli ob-havoda koloritni xarakterli holatini A.A.Plastovning «O'rim» kartinasining natyurmort qismida ko'rish mumkin. Kartinadagi voqea bulutlar bilan qoplangan tush vaqtida sodir bo'lgan. Natyurmortdagi narsalarning yorug`-soyasi bir-biridan kam farqlanadi. Kechki yoritilish holatidagi natyurmort rangtasviri misolida rassomni boshqa «Traktorчилarni kechki ovqati » asarida ko'rish mumkin. Narsalarning yoritilgan qismi qizil, to'q sariq ranglar bilan, soyalari esa quyuc to'q ranglarda tasvirlangan. Kartinada keskin ranglar gammasi o'yini yaratilgan bo'lib, asar nihoyatda jozibali yaratilgan.

Manzarada kenglik.

Manzarali rangtasvirning keyingi bosqichida ko'p seansli davomli etyud mashqlari bo'lib. ilgari o'zlashtirilgan nazariy qoidalarni eslash, amaliy ko'nikmalarni qo'llash hamda yangilarini o'zlashtirishi kerak.

Uzoq vaqt etyudlarda shakllar puxta ishlanishi bilan farqlanishi kerak.Ularni bajarish vaqti 2-4 soatdan (bir seansli) bir necha o'n soatgacha (ko'p seansli), davom etishi mumkin. Ko'p seansli etyud quyoshda ham, bulutli ob-havoda ham belgilangan bir vaqtda bajarilishi lozim.

Manzara mazmuni uning hayotiy mavzusi naturaning yaxlit ko‘rinishi plastik-kompozitsiya munosabatlarida ham, koloritda ham asosiy aniqlash kompozitsiyaning ajralmas qismidir. Shuning uchun davomli etyud bajarish jarayonida kompozitsiya syujetini puxta o‘ylash, tahlil qilish va uni tasvirlash muhimdir. Tasvirlash tekisligida ob’ektlar va narsalar joylashuvini mukammal tasavvur qilish zarur. Manzara ob’ektiga yaqinlashib yoki uzoqlashib xususiyatlarini o‘rganish, ko‘rish nuqtasini topish mumkin. Kompozitsiyada osmon bilan er va boshqa ob’ektlar orasidagi munosabatlarni aniqlash juda ham muhimdir.

Naturdan manzara kompozitsiyasini yaratish, natyurmort qo‘yilmalari uchun narsalar tanlash bilan ayrim o‘xshashlikka egadir. Etyud kompozitsiyasini yaratishda rassom chuqur fikrlashi, joyni tanlay bilishi, perspektiva qoidalariga amal qilishi va eng muhimi fazoviy kenglikni mohirona tasvirley olishi zarur. Manzara mavzuni tanlashda did badiiylik va kompozitsiyani asarda maromiga etkazib tasvirlash, rang va tus munosabatlarida ishni yaxlit yakunlay olish rassomning professional mahoratiga bog‘liq.

Ma’lumki narsalar katta masofada xajmliligini, relefligini yo‘qotib siluetli tekislik xarakteriga ega bo‘ladi. Old ko‘rinishdagi narsalar xajmli. soya-yorug‘ kontrast bo‘lib ko‘rinadi. Yaqinda joylashgan yashil dala masofa uzoqlashgan sari yashil rangdor bo‘yog‘i asta-sekin moviyga o‘tadi. Olisdagi to‘q narsalar ochroq va ko‘kimtir bo‘lib ko‘rinadi. Quyosh nurida bulutlar va uzoqdagi qorli tog‘ cho‘qqilari ham qizil to‘qsariq ranglarga kiradi. Tuman, chang yoki tutun bilan to‘yingan fazoda narsalarning siluet aniqligi pasayadi.

Old ko‘rinishlarni tasvirlashda narsalarning shaxsiy ranglari uzoqdagilarda esa shartli rang muhim o‘rinni egallaydi. Havoiy muhitda shartli ranglar narsalarni uzoqlashtiradi va aksincha, shaxsiy narsalarning rangi ularni xuddi old ko‘rinishga olib kelaetganday tuyuladi. Ish jarayonida old ko‘riishga biron-bir narsani «Yaqinlashtirish» zaruriyati bo‘lsa uncha lokallik (narsa) mohiyatini rangga qaratish lozim Etyudning qandaydir qismini «uzoqashtirish» zaruriyati tug‘ilsa unda shartli ranglarni qo‘llash kifoya.

Fazoviy sifatlarni aniqlashda zarur mashqlar bo'lib mavzuli manzarani ochiq fazoviy olislari bilan tasvirlash, masalan, tog'lardagi ko'p ko'rinishli dara yoki egri-bugri ariqli vodiy va old ko'rinishda daraxtli o'rmon va bir necha daraxtlar ko'rinishi bilan o'tloq (ko'kalamzor) xizmat qiladi. Uzoq ko'rinishdagi och-to'qligi va rang tusini to'g'ri aniqlash umumiy hammasini yaxlit ko'rib mayda qismlarga e'tibor bermasdan qarash muhimdir. Faqat shundagina old, o'rta va olis ko'rinishdagi rang farqlarini to'g'ri aniqlab tasvirlash mumkin.

«Havoni tasvirlashda deydi A.A.Deyneka - ayniqsa old ko'rinishni uzoqdagiga nisbatan munosabatlarini aniqlab va to'g'ri etkazilishi muhimdir, shundagina rangtasvir o'z yechimini topadi, asarda havoiiy muhit holatini to'g'ri tasvirlashga erishiladi».

Plener rangtasvirining boshlangich ta'lim bosqichida qisqa vaqtli va uzoq davomli etyudlar bajariladi. Keyinchalik esa manzara etyudlari ishlash jarayonida tabiatning nozik holatini tasvirlashga harakat qilish zarur.

Tasvirlash mobaynida rassom tabiatni nozik o'zgarishlarini kuzatar ekan o'z hissiyotini bo'lajak asarda ko'rsatishga harakat qiladi.

Demak. naturada asosan rang dog'larni umumiy va katta rang munosabatlarini to'g'ri topish va mohirona tasvirlay olish-rangtasvirning muhim asosidir. Shular asosida manzara ob'ektlarining mayda bo'laklarining nozik farqlanishlari amalga oshiriladi. Tabiat bo'yoqlari haddan tashqari rang-barang. O't o'lanlar, ko'kat va daraxtlar yashil rangda. Lekin tabiatdagi bu ranglar turli-tuman tuslarga ega. O'tloqda o'sayotgan maysalar, kuzgi bug'doy ekinlari, sabzavotlar, daraxtlarni har xil turlari hammasi ham o'ziga xos yashil rangdagi tusga ega. Tabiat o'ta iozik, ana shu o'ziga xos xususiyatlarni manzara, etyudida tasvirlay bilish rassomdan juda ko'p bilim, malaka va tinmay izlanchshni talab etadi.

2.3. “Tong shabadasi” mavzusi ustida izlanishlar va rangtasvir kompozitsiyasini ishlash jarayoni

Ilmiy ishning amaliy qismini ishlash jarayonimda men o`zim uchun qiziqarli bo`lgan tabiat manzaralarini bir qancha etudlarini ishladim. Uni ustozimga ko`rsatib maslaxatlashganimda, menga avvalo Xorazm manzarachi rassomlarining ustozini hisoblangan Otaxon Allaberganovning manzara janrida ishlagan ishlarini bir kuzatib chiqsang-deb maslaxat berdi. Men musavvirning bir qancha manzara janrida ishlagan ishlarining reproduksiyalarini ko`zdan kechirib chiqdim. Haqiqatdan ham musavvir o`z asarlarini shunday moxirlik bilan ishlaganki kuzatuvchiga ushbu asarlar xuddi real borliqning bir bo`lagiday seziladi. Ayniqsa suv bo`yoqdan foydalanib ishlagan kichik-kichik etudlari kuzatuvchini rom qiladi qo`yadi. Rassom Otaxon Ollaberganovning ijodida Xorazm viloyatining eng chekka qishloqlarini ham, qum va barxanlarni ham, qadimiy Xiva manzaralarini ham zo`r bir ishtiyoq bilan tasvirlaganligi kuzatishimiz mumkin. Bu bilan musavvir har kimning o`z vatani o`zi uchun a`ziz ekanini rang va bo`yoqlar vositasida uqtirayotgandek go`yo.

Biz bilamizki inson mexnati evaziga yaratilayotgan san`at asari ijodkor faoliyatining samarasidir. Rangtasvirning asosiy qonuniyatlari kelib chiqishiga ko`ra xayotda uchraydigan oddiy va ko`p marotaba takrorlanuvchi shakllarga borib taqaladi. Bunday shakllarni musavvir ajoyib manzara kompozitsiyalar tuzish orqali yaratadi.

Kompozitsiyani rassom kuzatishni o`rganmasdan, o`zi uchun qiziqarli va muhim jixatlarni belgilamasdan turib yarata olmaydi. Shu daqiqalardan keyingina musavvir uchun eng zarur bo`lgan borliqni ifoda etish imkoniyatiga ega bo`ladi. Ya`ni rassom tabiatni kuzatish va uni sinchiklab o`rganish orqaligina manzara janrida biror-bir muvaffaqiyatga erisha oladi. Buning uchun esa rangtasvirning ifodaviy vositalaridan bo`lmish chiziqlardan, ranglardan, perspektiva qonuniyatlaridan keng va moxirona foydalanadi. Xar qanday ijodkor

kompozitsiyada ifoda etilgan ko`rinishni tomoshabinga ko`rsatish uchun xarakat rivoji davomida kuzatish nuqtasini tanlaydi. Shundagina musavvir tomoshabin nigohini rangtasvir kompozitsiyasining muhim nuqtasiga qarata oladi. Eng oddiy echim-bu manzarada kuzatuvchi nigoxini hech qiyinchiliksiz tasvirlanayotgan jarayonga jalb qila bilishdir.

Rangtasvir ishlash jarayonida kartina tekisligining tuzilishi ham muhim ahamiyatga ega. Asarda tasvirlanadigan o`simliklar va buyumlar kartina tekisligida joylashtirilishi kerak. Tasvir kartinada “uchburchak“ xosil qilibturishi uchun kartina tuzilishiga diqqatni qaratish zarur. Rangtasvirda kartina uning xarakteriga muvofiq keluvchi ko`lamga ega bo`lishi shart. Fedotovning janrli kartinalarida tasvirlangan ko`rinish unchalik keng ko`lam talab qilmaydi. I.V.Surikovning tarixiy kartinaliri esa xususiyati va mavzusiga ko`ra keng ko`lam talab qiladi. Ko`pchilik rassomlar asarlarida kartina tekisligi to`g`ri tanlangani uchun muvaffaqiyatli chiqqan. Asarning muvaffaqiyatli chiqishiga kartina uchun tanlangan mato xajmi ham muhim.

Rangtasvirda uch o`lchamli makon nafaqat voqea sodir bo`layotgan yoki figuralarning harakatlanish joyini belgilashda, balki yaxlit kompozitsiya tuzishda ham qo`llaniladi.

Men ham o`z ilmiy ishimning amaliy jarayoniga o`tishdan oldin bir qancha rassomlarimiz asrlarining reproduksiyalarini bir necha marotaba kuzatib, muxokama qilganimdan keyin ish boshlashga kirishdim. So`ngra manzaraning tasvirini chizishga kirishdim. Ushbu jarayonni bajarishda oldindan tayyorlab qo`ygan xomaki eskizlarimdan foydalandim.

Bizga ma'lumki rangtasvirda manzara kompozitsiyasini chizish jarayonida quyidagi qoidalarga-kompozitsiyada ritim, simmetriya, asimmetriya, paralellik, asosiyning ikkinchi planda joylashuvi, rangtasvir kompozitsiyasida mazmun markazining bo`lishiga amal qilishga to`g`ri keladi.

Rangtasvir kompozitsiyasi uslublari xaqida soʻz yuritganda esa, monumentallik xissini tasvirlashga xarakat qilish, fazoni tasvirlash, gorizontallar va vertikalalar, deognallariga eʼtibor berish talab qilinadi.

Rangtasvir kompozitsiyasi vositalari deyilganda, kompozitsiyaning chiziqlar, dogʻlar, yorugʻ-soyalar, chiziqli va havo perspektivalaridan iborat ekanligini nazardan chetda qoldirmaslik kerak boʻladi.

Men ham malakaviy bitiruv ishimning amaliy qismini bajarishda yuqoridagi qonun-qoidalarga amal qilishga xarakat qildim.

Bizga maʼlumki Oʻzbekiston tabiati barcha ijodkorlar va barcha goʻzallik shaydolari uchun hamisha quvonch va zavq manbai, ijod manbai boʻlib kelgan. Xususan buni rassomlardan Oʻ.Tansiqboev, Z.Inahomov, P.P.Benkov kabiy bir qancha musavvirlarning ijodida koʻrish mumkin.

Maʼlumki, tabiat goʻzalligining asosini undagi qaytarilmas ranglar, shakllar hamohangligi tashkil etadi. Shuningdek bunga tabiatdagi ajoyib oʻziga xos narsalar va koʻrinishlar ham xizmat qiladi. Faqatgina ijodkor tabiatdagi bu goʻzalliklarni koʻra bilishi, ularni muntazam ravishta kuzata olishi zarur.

Men oʻz ilmiy ishimda faqatgina tabiat manzarasini koʻrsatibgina qolmasdan, oʻsha tabiat manzarasini oʻquvchilarga idrok qildirish ustida ham izlanishlar olib bordim. Chunki oʻquvchilar tabiatni idrok qilishni bilmasdan turib, rangtasvir kompozitsiyasining ifodaviy vositalarini anglab etishi qiyin.

Tabiat qoʻyniga qilingan sayohat jarayonida uning goʻzalliklarini oʻrganish narsalarning rangi, fazoviy xolati, oʻlchovlari bilan bogʻliq boʻlib, ular bolalarning badiiy ijodiy qobliyatlarini oʻstirishga ham samarali taʼsir koʻrsatadi.

Tabiatga uyushtirilgan sayohat jarayonida oʻquvchilar daraxtlarni kuzatish orqali oʻsha daraxtlar tanasining yoʻhonligi, shoxlarining yoʻnalishi va rangi, ixchamligi va nozikligi, barglarining oltin tusga kirganligini ongli va estetik idrok etadilar.

Oʻquvchilarni yorqin ranglar, yaltiroq toza narsalar, ulardagi rang boʻlaklarining qaytarilishi va almashinishi, simmetrik joylashuvi toʻlqinlantiradi.

Bolalarda narsa va xodisalarni idrok etish borasidagi bu xususiyat asta-sekinlik bilan rivojlana boradi.

Manzara janridagi asarlar kishini qurshab olgan borliqdagi go`zalliklarni ochib beradi va tabiat timsoli orqali kishini his-tuyhulari va hayajonlarini oshiradi.

San`at asarlaridagi gullar, daraxtlar bulutlar haqidagi umumiy tushunchalarni shakllantirish bilan bir qatorda, ularning badiiy tomonlari, tevarak-atrofdagi narsalarning o`ziga xosligi, ranggi va shakllarning turli tumanligini ko`ra bilishga, ularning go`zalligidan zavqlana bilishga, tasviriy san`at asarlarida rassom tasvirlagan obrazli ma`noni, kayfiyatni jiddiy kuzata bilishga o`rgatib boriladi.

Men ilmiy ishimdagi ana shunday kichik hajmdagi ekspremental tadqiqotlarni o`zim pedagogik amaliyotda bo`lgan Urganch tumanidagi 36 sonli umumiy o`rta ta`lim maktabida bo`lib o`tgan pedagogik amaliyot davrida tadqiq qilib o`rganishga muvaffaq bo`ldim. Meni bu boradagi izlanishlarimga maktab ma`muryati va ustozlarim yaqindan yordam berishdi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda har bir rang bir olam ma'no anglatadi. "Nima bois tabiat yashil rangda yaratilgan? Buni sababi nimada? Agar tabiat qizil yoki sariq rangli bo'lsa, nima ma'noni anglatadi. "Nima bois tabiat yashil rangda yaratilgan? Agar tabiat qizil yoki sariq rangli bo'lsa, nima ma'noni anglatgan bo'lar edi?"

Shu kabi savollarga inson asrlar mobaynida javob izlab keladi. Lekin uning sir-sinoatini hech kim tagiga etolmagan.

Men xam shu savolga javob izlash maqsadida shu mavzuni tanlaganman. Bu savolga javob topdimmi, yo'qmi bilaolmadim, lekin tabiat ranglarining naqadar mo'jizakor kuchga ega ekanligini his qildim.

Chunki ranglar inson kayfiyatini ko'tarar va salbiy yoki ijobiy ta'sir ko'rsatar ekan. Men manzara tasvirlash orqali shu kabi savolga javob izlashga harakat qildim. Oz bo'lsada bu savolga javob topdim deb o'ylayman, chunki vatanimizning go'zal tabiati shunday xilma-xil va rang-barang ekanki men bu manzaralarni kuzatib hayratda qoldim. Men yaratgan ushbu manzara asarim insonlarda ijobiy kayfiyat uyg'ota oladi deb o'ylayman.

Ushbu malakaviy-bitiruv ishimda tasviriy san'atning go'zal janrlaridan biri manzara janri haqida to'htalib o'tdim, natijada tasviriy san'atni insoniyatning ijtimoiy taraqqiyotiga qo'shgan hissasi, mamlakatimiz madaniyati, san'ati va uning hayotida tutgan o'rni, bugungi kun nuqtai -nazaridan qaralganda qanday ahamiyatga ega ekanligi xususida fikr yuritildi.

Malakaviy-bitiruv ishimning kirish qismidan mavzuning dolzarbligi, manbalar va malakaviy bitiruv ishimning maqsadi va vazifalari haqida gap boradi.

Malakaviy-bitiruv ishimning nazariy qismida quyudagilar o'rganildi:

"Tong shabadasi" mavzusida ishlangan kompozitsiya misolida manzara janrida kompozitsiya ishlashni pedagogik zaruriyat sifatida o'rganildi;

“Tong shabadasi” mavzusida kompozitsiya ishlashda buyuk rassomlar ijodiy merosidan foydalanishga erishildi;

“Tong shabadasi” mavzusida ishlangan kompozitsiya orqali o'zbek millatiga xos milliy urf-odat va an'analarning tutgan o'rnini va ahamiyatini ko'rsatildi;

“Tong shabadasi” mavzusida ishlangan kompozitsiyani dars jarayonlarida o'rgatishda yangi pedagogik texnologiyaning samarali usullari va vositalaridan foydalanildi.

Shuningdek rangtasvir san'ati va rangtasvirda manzara janri, shuningdek, rassomlari ijodidan olgan tassurotlarim haqida ma'lumotlar berilgan. Shu bilan birga men bu bo'limda rangtasvirda obraz, kolorit, fazo va kompozitsion ifodalilik va manzara ishlashning o'ziga xos xususiyatlariga urg'u berib o'tdim. Undan tashqari keyingi bo'limlarda mavzu ustidagi izlanishlarim va ish jarayoniga to'xtalib o'tdim.

Tasviriy san'at mashg'ulotlarida o'quvchilarga tabiat manzarasini chizish orqali ranglarini ko'rish, ranglar orasidagi munosabatlarni va mutanosibliklarini ko'ra olish, tabiatdagi barcha narsalarni rang-barangligini turli vositalar yordamida tasvirlashga o'rgatish haqida ham qiziqarli ma'lumotlar berib o'tdim.

Malakaviy –bitiruv ishimda ushbu mavzu iloji boricha amaliy va nazariy qismida har tomonlama chuqur muloxaza etishga harakat qilindi.

Kelajakdagi o'qituvchilik faoliyatimda ham bu soxadagi ijodiy ishimni davom qildirib o'quvchilarni badiiy madaniyatini oshirishda bor kuchini ayamayman deb o'ylayman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A. O'zbekiston milliy istiqlol, siyosat, mafkura. «O'zbekiston» nashriyoti. T.,1993.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi «O'zbekiston» nashriyoti. T.,1991.
3. O'zbekiston Respublikasining qonuni «Ta'lim to'g'risidagi», «Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi to'g'risida» «O'zbekiston» nashriyoti. T.,1998.
4. Atamuradov S., Xusanov S., Rametov J. Ma'naviyat asoslari.– T.,2000.
5. Karimov I. Ma'naviy yuksalish yo'lida. – T.,1998.
6. Karimov I. Milliy mafkura haqida.– T.,2000.
7. Erkaev A. Ma'naviyat – Millat nishoni. – T.,1997.
8. Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari.T.1998.
9. Abdurahmonov G.M. Rangtasvir va kompozitsiya.- Toshkent, 1995.
- 10.Г.М.Абдурахмонов «Тасвирий санъат композицияси» 1996 й. Тошкент.
- 11.Boymetov B. “Qalamtasvir”. Darslik 1 - qism. Toshkent, 2006.
- 12.Boymetov B. “Qalamtasvir asoslari”. O'quv qo'llanma. Toshkent, 1999.
- 13.Tolipov N., Abdirasilov S., Oripova N. Rangtasvir (1-qism). T., 2002.
- 14.Tolipov N., Abdirasilov S., Oripova N. Rangtasvir (2-qism). T., 2003.
- 15.Abdirasilov S.,Tolipov N. “Rangtasvir” Toshkent , 2005.
- 16.Tolipov N., Abdirasilov S., Oripova N. Rangtasvir. T., 2006.

Elektron ta'lim resurslari:

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.Ziyonet.uz
4. www.edu.Uz
5. www.nbgf.intal.uz.
6. tdpu-INTRANET. Ped

ILOVALAR







